O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti

TARIX fakulteti
TARIX yo`nalishi.

Umumiy tarix kafedrasi

Mahatma Gandi va gandizm.

Malakaviy bitiruv ishi

Bajardi: **Hamdamova.**
Ilmiy rahbar: **Rahmatullayev M.**

Malakaviy bitiruv ishi tarixshunoslik va manbashunislik kafedrasida bajarildi. Kafedra 2011-yil 29 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №10).

Kafedra mudiri: **Hoshimova M.M.**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011-yil _____iyundagi majlisida himoya qilindi va _____ foizga baholandi (Bayonnoma №_____).

YaDAK raisi: _____

YaDAK a`zolari: _____

Samarqand-2011

Mundarija

Kirish……..3-7

I.Bob. Moxandas Karamchand Gandi: hayoti va faoliyatining boshlanishi

I.1. Moxandas Karamchand Gandining yoshlik davri……...8-16
I.2. Janubiy Afrikadagi faoliyati……..17-29

II.Bob.Maxatma Gandining ijtimoiy va siyosiy qarashlari

II.1 Maxatma Gandi va Hindiston Milliy Kongressi……30-40
II.2. Maxatma Gandi Hindiston milliy ozodlik kurashining boshida……...41-50
III .3. Gandizm. Gandi va undan keyin……..…51-59

Xulosa…..…….60-63

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati……64-65

Kirish

O’zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix faniga doir tadqiqotlarni har taraflama takomillashtirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Yurtboshimiz I. A. Karimov haqli ravishda ta’kidlaganidik, “o’z tariximiz bilan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo’lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur!”[1].

Yurtboshimizning bu o’tkir fikrlaridan kuch olgan biz yosh tarixchilar o’z tariximizni va chet el tarixini o’rganar ekanmiz, hurmatli yurtboshimizning yana bir qimmatli so’zlarini yodga olmasdan ilojimiz yo’q: “O’zligimizni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo’lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi zarur”[2] - deb bejiz aytmaganlar. Bundan kelib chiqib biz tarixni chuqurlashtirib o’rganishimiz maqsadga movofiq bo’ladi degan xulosaga kelish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng tarix faniga bo’lgan e’tibor kuchaydi. Ilgari tarixning ko’pgina o’rganilmagan jihatlarini qayta ko’rib chiqish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvi chog’ida asl tarixni yaratishdek mas’uliyatli va sharafli vazifani ular oldiga qo’yganligi bu borada dastlabki qadam bo’ldi[3]. Mana shu metodologik asosga tayangan holda O’zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar bu boradagi yutuqlardan bo’ldi[4]. Endilikda tarixchilar oldidaga dolzarb muammolar ko’lami aniqlab olindi.

[1] Karimov I. A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O’zbekiston, 1999. 149-bet.
[2] Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q // Muloqot. 1998. 2-son. 2-3-betlar.
[3] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent: O’zbekiston, 1998 y. 16-bet.
[4] O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Tarix insituti faoliyatini takomillashtirish to’g’risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori.// Xalq so’zi. 1998 yil. 28-iyul.

Sotsiologlarning hisob-kitoblariga qaraganda, XX asrning birinchi shaxsi Albert Enshteyn bo'lsa, ikkinchi shaxsi Maxatma Gandi ekan. Bu bejiz emas, albatta. Maxatma Gandi o'zining kechinmalarga boy hayoti bilan Hindiston xalqi uchungina emas, butun dunyo xalqlari uchun namuna bo'lib qoldi. Hind xalqining asriy mustamlakachilik zulmidan abadiy xolos bo'lishi aynan manashu g'oyaviy rahbar, davlat va siyosiy arbobning fidokorona va jangovor hatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa uning "aximsa" – kuch ishlatmaslik siyosati jahondagi ozodlik harakatlari uchun ibrat hisoblanadi.

Ingliz mustamlakachilarini Hindistonday katta mamlakatdan haydab chiqarish oson ish emasdi, buning uchun sermillat hind xalqining vatanparvar kuchlarini bir yoqadan bosh chiqarib kurashga boshlash zarur edi. Bu vazifani o'z hindu diniga sodiq Maxatma Gandi uddaladi. U Hindiston mustaqilligi uchun ulkan xalqni yig'di va kurashga otlantirdi va barcha tomonlama muhim ijobiy yutuqlarga erishdi. Har bir millatning shakllanishi birinchi navbatda uning farzandlari qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usiga tayanadi. Maxatma Gandining hayoti va faoliyati bunga yaqqol misoldir.

Shu jihatdan "Maxatma Gandi va Gandizm" mavzusida bituruv malakaviy ishni dolzarb deb hisoblayman. Ushbu mavzuni yoritishda foydalanilgan asosiy adabiyotlarga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Ushbu bituruv malakaviy ishini yoritishda asosiy manba sifatida Maxatma Gandining "Mening hayotim"[5] asarini olish mumkin. Bu asar tarjimai hol sifatida yozilgan bo'lsada, faqat muallif hayotigagina chizgilar bermaydi, balki tarjimai hol bahonasida Maxatma Gandi o'zining butun dunyo qarashini, hayotda ko'zlagan maqsadlarini oshkora va holisona baholab beradi. Bundan tashqari, mustamlakachilik siyosatining naqadar jirkanchligini, uning alohida xalqlar emas, umuman jahon xalqlari boshiga beqiyos musibatlar solishini har jihatdan asoslab, fosh etadi. Ushbu "Mening hayotim" asari mazmuni jihatidan o'ziga xos kichik qomusni eslatadi. Unda tilga olingan hindu urf-odatlari, boshqa dinlarga oid tarif va sharhlar alohida ahamiyatga ega.

[5] Ганди М.К. Моя жизнь. М., 19.

Bu asarning yozilishi haqida Moxandas Gandining o’zi shunday xotirlaydi:”Men Janubiy Afrikadagi Satyagrax tarixini tugatganim bois “Navjivan”[6] uchun tarjimai hol yozishga kirishishga qaror qildim. Svamiy Anand tarjimai holimni alohida kitob qilib chiqarishini xohlardi, biroq buning uchun menga bo’sh vaqt yo’q edi: har haftada bir bobdan yoza olar edim. “Navjivan” uchun men baribir haftasiga biror narsa yozishim shart edi. Svamiy bunga rozi bo’ldi va men yeng shimarib ishga tushib ketdim. Ammo men haqiqiy tarjimai hol yozmoqchi emasdim. Haqiqatni qidirish tarixini shunchaki hikoya qilib bermoqchi edim, xolos. Bunday izlanishlar butun hayotim mazmunini tashkil etgani sababidan ular haqidagi hikoya haqiqatdan ham haqiqiy tarjimai holga o’xshagan bir narsa bo’ldi. Iltimos, keyingi boblarga sochib yuborilgan maslhatlarimni hech kim rad etib bo’lmaydigan maslahatlar deb o’ylamasin. Men tasvirlab berayotgan izlanishlarga faqat namunalar deb qaramog’i kerak. Ular bilan tanishgan har kim o’z moyilligi va qobiliyatiga qarab mustaqil ravishda izlanish olib borishi mumkin. O’ylaymanki, shunda men taklif etgan namunalar foydali bo’ladi, chunki gapirilishi kerak bo’lgan narsalarni yashirmoqchi yoki haspo’shlamoqchi emasman. O’quvchini o‘zimning barcha xato va yangilanuvchilarim bilan tanishtiraman deb umid qilaman. Mening vazifam – qanchalik yaxshi odam ekanligim haqida gapirishim emas, balki satyagrah sohasidagi izlanishlarimni tasvirlab berishdir”.

E.M.Sh. Nambudiripadning “Maxatma Gandi va Gandizm”[7] asarida Maxatma Gandining dunyoqarashi uning hind xalqining milliy ozodlik kurashidagi o’rni markizm-leninizm g’oyalari nuqtai-nazaridan yoritilgan chunki asar muallifi Hindiston kommunistik partiyasining boshliqlaridan biri bo’lgan yirik jamoat arbobidir. U Maxatma Gandi faoliyatining asoaiy bosqichlari xarakteristikasini berishga intilgan. Asarni yozishda D.G. Tendulkarning sakkiz tomlik “Maxatma” kitobidan keng foydalangan.

[6] Navjivan – Axmadobodda chiqadigan oylik ro’znoma. Maxatma Gandi ixtiyoriga berilgan haftalik ro’znomaga aylantirilgan.
[7] Намбудирипад Е.М. Махатма Ганди и гандизм. М., 1960.

Tendulkar D.G – Maxatma Gandining yaqin do'sti va izdoshi bo'lib, uning "Maxatma" kitobi Maxatma Gandining hayoti va ta'limotini nisbatan to'la bayoni hisoblanadi. Bunda muallif ta'kidlaganidek "tarixni haqqoniy yoritishga" intilgan. Maxatma Gandining o'zi unga yaxshi izoh yozgan. muallif kitobni yozib Gandiga taqdim qilgan. Uning eslatishicha "U bilan oxirgi marta 1948-yil 22-yanvarda uchrashganimizda biz kichik masalalarni muhokama qildik: nashr formati, izohlari, orfografiyasi, snoskalari hatto defislarini ham. U mening ishimga katta qiziqish bildirdi"[8].

D.G. Tendulkarning sakkiz tomlik "Maxatma" asari faqatgina o'z davrining buyuk shaxsi hayotining bayoni bo'lmay, balki Hindistonning o'sha davrdagi alohida ahamiyat kasb etgan davri va tarixini bayon etishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bitiruv ishini yozishda foydalangan adabiyotlardan biri R.A. Ulyanovskiyning "Buyuk hind xalqining uch rahnamosi"[9] asaridir. Unda hind xalqining uch rahnamosi Maxatma Gandi, Javoharlal Neru va Indra Gandi haqida ocherklar kiritilgan. Asarda bu shaxslarning siyoaiy qarashlarining shakllanishi, ularni hindlarning mustaqilligi va Hindiston taraqqiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Unda ayniqsa Maxatma Gandining Janubiy Afrikadagi irqchilik va mustamlakachilikka qarshi olib brogan siyoaiy kurashi bayon etilgan.

D.Dattaning[10] asarida Maxatma Gandining falsafiy qarashlari qisqacha bayon etilgan bo'lsa E.N. Kamarov va A.D. Litmanlarning[11] asarida uning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy qarashlari bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlarning to'liq ro'yxati ishning oxirida keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bob "Maxatma Gandi: hayoti va faoliyatining boshlanishi" deb nomlangan bo'lib, u ikki bo'limga bo'lingan. "Yoshlik davri" deb nomlangan birinchi bo'limda Maxatma Gandining mutaxassislik diplomini qo'lga kiritgunga

[8] Намбудирипад Е.М. Махатма Ганди и гандизм. М., 1960, с. 11.
[9] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., Политиздат, 1986
[10] Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959
[11] Камаров Э.Н., Литман А.Д. Мировоззрение Мохандаса Карамчанда Ганди. М., 1969

qadar bo’lgan hayoti yoritilgan. Qariyb o’n ikki yillik Janubiy Afrikadagi faoliyati esa “Janubiy Afrikada” deb nomlanga ikkinchi bo’limda yoritilgan.

“Maxatma Gandining ijtimoiy siyosiy qarashlari” deb nomlangan ikkinchi bob uch bo’limga bo’lingan. Birinchi bo’lim “Maxatma Gandi va Hindiston Milliy Kongressi” deb nomlanib, unda Maxatma Gandining Hindiston Milliy Kongressi (HMK) bilan tanishishi unga bo’lgan munosabati ifoda etilgan. Ikkinchi bo’lim “Maxatma Gandi Hindiston milliy ozodlik kurashining boshida” deb nomlangan bo’lib unda Maxatma Gandini Hindiston Milliy Kongressidan ajratib bo’lmaydigan 1920-1948 yillardagi faoliyati bayon etilgan. “Gandizm. Gandi va undan keyin” deb nomlangan uchinchi bo’limda Maxatma Gandi g’oyalari uning vafotidan keyingi ahvol haqida so’z yuritiladi.

Birinchi bob. Moxandas Karamchand Gandi: hayoti va faoliyatining boshlanishi

I.1. Moxandas Karamchand Gandining yoshlik davri

Moxandas Karamchand Gandi 1869 yilning 2-oktabrida G'arbiy Hindistonning bir chetida joylashgan Purbandar knyazligida tug'ulgan. Knyazlikning asosiy aholisi gujorat tilida so'zlashadi[12]. Gandi ajdodlari “baniya” savdogarlar kastasiga tegishli bo’lib, ularning orasida milliy savdo va siyosiy burjuaziya vakillari ham bor edi. Moxandas o'z ajdodlari haqida shunday yozib qoldirgan: «Gandilar aftidan bir vaqtlar baqqollik qilgan baniya toifasiga mansub. Biroq bobomdan boshlab keyingi uch avlod vakillari Kathiyovarning bir qancha xonliklarida bosh vazirlar bo'lgan[13]. Bobom O'ttamchand Gandi, yoki ko'pincha uni O'ta Gandi deb ataganlar, juda qattiqqo'l odam bo'lgan ekan. Davlat ichidagi fisq-fujurlar tufayli u Purbandardagi devonbegilik lavozimidan vos kechib, Junaharga panoh izlab ketishga majbur bo'lgan.

O'ta Gandining xotini o'lib, ikkinchi bor uylangan. birinchi xotinidan to'rt, ikkinchisidan ikki o'g'il qolgan. Esimda, bolalik paytimda bobomning o'g'illari ikki onadan ekanligini hayolimga ham keltirmagandim. Shu oltovlon og'ayni ichidan beshinchisining ismi Karamchand Gandi yoki Kaba Gandi edi, oltinchisi esa Tulsidas Gandi bo'lgan. Shu ikkala aka-uka birin -ketin Purbandarning bosh vazirlik lavozimida ishlagan. Kaba Gandi - mening otam. U Rojaston sudining a'zosi edi. Hozir bu sud yo'q bo'lib ketgan, ammo o'sha paytda bug'oyat mo'tabar idora bo'lib, sulola boshliqlari o'rtasidagi mojarolarni bartaraf etib turgan. Kaba Gandi bir muncha vaqt Rajkotga, keyinroq Vankonerda bosh vazir bo'lgan. To o'limigacha u Rajkot hukumatidan nafaqa olib turgan.

Kaba Gandi to'rt marta uylangan. dastlabki uch xotini o'lgan. Birinchi va ikkinchi xotinidan ikki qiz qolgan. To'rtinchi xotini Putlibaydan bir qiz,uch o'g'li bo'lgan. Men eng kichkinasi edim.

---

[12] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984, С.23.

[13] Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007. С.76.

Otam o’z nasliga sodiq, haqgo’y, mard va bag’rikeng, ammo jizaki odam bo’lgan. U hech kimga sotilmagan va haqgo’yligi tufayli oilada ham o’zgalar orasida ham hurmatga sazovor edi. Rajkat davlatiga nisbatan moyilligi ham yaxshi ma’lum edi. U hech qachon boylik to’plashga intilmagan va bizga arzimagan bisot qoldirgan. U hech qanday ma’lumot olmagan, faqat katta hayot tajribasini to’plagan; juda nari borsa gujorat maktabining beshinchi sinfigacha o’qigan, xolos. Tarix va geografiyadan hech qanday tushunchaga ega bo’lmagan. Ammo boy hayotiy tajriba uning eng murakkab masalalarni hal etishga va yuzlab odamlarning boshini biriktirishga qo’l kelgan. Din borasida ham uning bilimi haminqadar edi, biroq ehromlarga qatnash va diniy va’zlarni tinglash tufayliunda ko’plab hindularga xos bo’lgan diniy madaniyat bor edi. Yoshi bir joyga yetganida bir olim braxman da’vati bilan (u olilamizning do’sti edi) “Bxagavatgita”ni qiroat qila boshlagandi va ibodat vaqtida har kuni undan bir qancha misralarni ovozini chiqarib qiroat qilardi.

Onam - fikri tiniq ayol edi, u davlat ishlarini yaxshi bilardi hamda devondagi ayollar uning aqlliligini maqtab gapirar va hurmat qilar edilar. Bolaligimdan foydalanib, men aksar onamga ergashib, devonxonaga borardim va uning Thakur sohibning beva onasi bilan qizg'in suhbatlashganlarini haligacha eslayman»[14].

Bolaligi Purbandarda o'tgan Moxandas birinchi marta maktabga borib, ko'paytirish jadvalini zo'rg'a yod olganini, boshqa bolalar bilan o'qituvchisiga turli-tuman laqablar qo'yganini eslarkan, shunday yozadi: «Otam Rojaston sudi a'zosi etib tayinlanib, Purbandardagi Rajkotga ko'chib o'tganida men yettilarda edim. Boshlang'ich maktabga qatnay boshladim. Bu kunlarni va meni o'qitgan o'qituvchilarimning ismiyu fe'l-atvorlarini yaxshi eslayman. Biroq Purbandarda bo'lganidek, bu yerdagi mashg'ulotlarim haqida deyarli hech gap aytolmayman. Shunga qaraganda, men g'oyat tortinchoq o'quvchi bo'lganman. Bu maktabdan shahar tashqarisidagiga, keyinroq esa o'rta maktabga o'tganman. O'shanda o'n ikkida edim. O'qituvchilarga yoki maktabdosh o'rtoqlarimga biron marta yolg'on so'zlaganimni eslay olmayman. Men o'lguday odamovi edim va bolalardan o'zimni

[14] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С. 43-44.

tortar edim. Mening birdan bir do'stlarim kitoblar va darslar edi. Maktabga o'z vaqtida yetib kelish va dars tugashi hamon uyga qarab chopish menga odat bo'lib qolgan edi. Men to'g'ri ma'noda uyga qarab chopardim, chunki bitta yarimta bilan suhbatlashishga toqatim yo'q edi. To'satdan menga ta'na qilib qolishlaridan o'lguday qo'rqardim.

O'rta maktab davrdagi yana ikki voqea xotiramda saqlanib qolgan. Umuman kitob o'qishga hushum yo'qroq edi va faqat darslarimnigina o'qir edim. Men har kuni darslarni qunt bilan tayyorlardim, biroq o'qituvchining tanbehidan qochish uchungina tayyorlardim; to'g'risi, uni aldashni istamasdim. Shu bois barcha darslarni hech qanday qiziqishsiz qilardim. Modomiki, darslarni shu tahlid bajarar ekanman, boshqa kitoblar o'qishni gapirmasa ham bo'ladi. Biroq bir gal qo'limga otam sotib olgan «Shravan pitribhakti natak» (Shravanning ota-onalarga mehri haqidagi pesa) tushib qoldi. Men uni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqdim. Ayni shu paytlarda biznikida sayyor aktyorlar guruhi kelib oldi. Boshqa tomoshalar qatorida ular bir sahnani ham o'ynab ko'rsatishdi, unda qadamjolarga yo'l olar ekan, yelkasidan oshirib olgan ko'r ota-onasini Shravan yetaklab borar edi. Kitob va mana bu sahna menda o'chmas taassurot qoldirdi.»Sen mana shundan ibrat olishing kerak»,-dedim men o'zimga o'zim. Shravanning o'limidan qon-qon yig'layotgan ota-ona faryodi hanuzgacha xotiramdan ketgani yo'q. Ayanchli kuy meni qattiq hayajonga soldi va butunlay o'ziga rom qilib olgandi. Men uni to'xtovsiz ko'rishga tayyor edim. Lekin qani edi buning uchun menga ruxsat etishsa! Shu o'y menga sira tinchlik bermay qo'ygandi va «Harishchandr» sahnasinidoim o'zim o'ynaydigan bo'ldim. «Barcha odamlar Harishchandr singari to'g'ri bo'lishsa nima qilardi?». Men kechasi-yu kunduzio'zimga shu savolni berar edim. Haqiqat yo'lidan yurish va Harishchandrga o'xshab barcha sinovlardan o'tish kerak-pesadan hosil bo'lgan mening oliy g'oyam ana shu edi. Men Harishchandr haqidagi rivoyatning to'g'riligiga zarracha shak keltirdim degunimcha ko'zimga yosh qalqirdi. Endi bunday o'ylab qarasam, Harishchandr tarixiy shaxs bo'lishi mumkin ekan. Baribir ham Harishchandr va Shravan men uchun haqiqatda bor odamlar

bo'lib qolaveradi va bordiyu, ushbu pesalarni hozir o'qiganimda ham ular oldingidan kam taassurot qoldirmagan bo'lar edi»[15].

Hindu odatlariga ko'ra Moxandas Gandi o'n uch yoshida uylanadi. Bu vaqtda uning katta akasi oilali bo'lib, ikkinchi akasi uylanishi kerak edi. Ota-onasi o'zining iqtisodiy jihatlari va sharoitlarini hisobga olib Moxandasni va amakivachchasini ham qo'shib uch yigitni birdaniga uylantirgan. Yetti yoshidayoq unashtirilgan Gandi o'n uch yoshida Kasturbay Manajiga uylanadi[16]. “Bunda ular bizlarning farovonligimizni uncha o’ylashmagan, xohishimizniku gapirmasa ham bo’ladi” degan Moxandas shunday izohlaydi: “Nikoh rasm-rusumlari, xarajatlari ko’pincha kelin va kuyovning ota-onalarini xonavayron qilib tashlaydi. Ular juda ko’p mol-mulki va vaqtlarini isrof qiladilar. Kiyim-kechak tikish va taqinchoqlar yasashga, ziyofat uchun pul topishga necha oylar kerak bo’ladi. Har biri tortiladigan taomlarning xillari bilan bir-birini mot qilishga intiladi. Ovozi yaxshi va xotinlar bo’g’ilib qolguncha qo’ni-qo’shnilarga tinchlik bermay qo’shiq-lapar aytganlari-aytgan, hatto ba’zilari shundan og’rib qolishadi. Bu shovqin suronga, ziyofatlardagi bu isrofgarchiliklarga qo’shnilar parvo qilishmaydi, chunki ular biladilar – vaqti kelib o’zlari ham xuddi shunday qiladilar. Ana shunday isrofgarchilikka yo’l qo’ymaslik maqsadida uchala o’g’ilning to’yini bitta qilishga kelishilgan edi”

Moxandas yetuklik attestatiga bitirish imtihonlarini 1887 yilda topshirgan. O’shanda imtihonlar Bombey va Ahmadobodda topshirilgan. Mamlakatda hukm surgan qashshoqlik, tabiiyki, Kathiyovar o’quvchilarini yashash arzonroq joyga yaqin joylashgan shaharga borishga majbur etgan. Oilasining g’aribona mablag’i Moxandasni ham shunday yo’l tutishga majbur etgan[17].

“Ota-onam yetuklik attestatini olganimdan keyin kollejga kirishimni xohlashardi. Kollejlar Bavnagar va Bombeyda bor edi. Men Bavnagardagi Samaldas kollejiga borishga qaror qildim, Chunki bu arzonroq edi. Kollejga kelgach, butunlay gangib qoldim: anglash uyoqda tursin, ma’ruzalarni tinglash

[15] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.46.
[16] http://www.krugosvet.
[17] Камаров Е.Н, Литман А.Д. Мировоззрение Махандаса Карамчанда Ганди. М., 1969. С.52.

ham men uchun g’oyatda qiyin edi. Ayb birinchi darajali hisoblangan o’qituvchilarda emas, balki o’zimda edi, chunki mutlaqo tayyorlanmagan edim. Birinchi semestrni tugatgach, uyga qaytdim”[18].

Oilasining eski do’sti va maslahatchisi dono olim, Brahman Mavji Dave maslahati bilan 4-sentabrda Angliyaga o’qishga jo'naydi. Uning Londonga o'qishga borishi oson bo'lmagan. Oila a'zolari iqtisodiy sharoiti og'ir bo'lgani uchun qarshilik qilishgan. Qarshilik asosan dinidan chiqib ketadi, g'arb turmush-tarziga o'tib ketadi degan ma'noda bo'lgan. U onasiga o'z hindu diniga sodiq qolishga tantanali qasamyod qilgandan keyingina ruxsat oladi. Keyinchalik Moxandas ma'lum vaziyatlarda jaynlar va hindularning muqaddas bitiklarini o'rgatadigan bunday tantanali qasamyod qilish foydali ekanligini ta'kidlagan.[19]

Katta akasi Ya.Gandi uni 1888-yilda o'qishga jo'natadi va «Inner Templ»da o’qishga kiradi. U yerda ingliz, fransuz va lotin tillarini, huquqni o’rganadi. O’sha vaqtda Londonda Hindiston Milliy Kongressi birinchi boshlig’i, asoschisi D.Naoradji kelgan edi. D.Naoradjining ma’ruzalariga qatnashar, u chiqarayotgan “Hindiston” gazetasini berilib o’qir edi. U oilasiga bergan vadasiga ko’ra vegetarianlikka sodiq qoldi. Shu bois uni vegetirian jamoasi boshligi qilib saylashadi, jurnallarda uning dieta to’g’risidagi maqolalari chop etiladi.

Londonga kelgan Moxandasda “to’rtta tavsiyanoma bor edi: doktor P.J.Mehtaga, oqlovchi Daliatram Shuklaga, valiahd Ranjitsinhjiyga va Dadabhay Naorojiyga”.

Inglizcha odobdan mutlaqo bexabarligi va o’z hindu diniga sodiq qolish ahdi Moxandasga ancha noqulayliklar tug’dirgan.

1889-1891-yillarda Londonda yashagan Moxandas avval Inner Templ advokatlik koorparatsiyasida huquqshunoslikni o'rgangan. 1890-yildan esa bu faoliyatini London universitetida davom ettirgan va barrister (ing. barrister - Buyuk Britaniyada advokatning oliy unvoni) diplomini oladi va 1891 yilda vataniga qaytadi.

---

[18] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.48.

[19] Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959. С.19.

To’ng’ich akam menga katta umidlar bilan qarar edi. U boyliklar, shuhratlar, dovruqlarni betoqatlik bilan kutardi. Uning qalbi nihoyatda keng oliyjanob edi. Bu sifat endi oddiylik bilan chatishib, ko’p do’stlarini o’ziga jalb qilar edi va ularning yordamida meni mijozlar bilan ta’minlash niyatida edi. Men uchun faoliyat maydoni hozirlash uchun jon-jahdi bilan tirishardi.

Chet elga ketishim munosabati bilan toifada avj olgan to’s-to’polon ham tininb ulgurmagandi. O’shanda meni toifamizdan vaqtincha chiqarib tashlashgandi. Toifa a’zolari ikki guruhga bo’lingandi: birlari o’sha zahoti meni tan olgan bo’lishsa, boshqalari meni toifaga qo’yishga moyil emas edilar. Birinchi guruhga ko’nglimni chog’ qilish uchun akam meni Nasikka olib ketdi, u yerda men muqaddas daryoga g’usl qildim. Rajkotga kelgach esa, u toifa sharafiga osh tortdi. Bularning barchasi menga yoqmayotgandi. Biroq akamning menga muhabbati cheksiz edi, mening unga ixlosim ham shu muhabbatga yarasha edi, shuning uchun men uning barcha istaklarini bajarar, uning xohish-irodasini amri vojib deb bilar edim.

Meni qabul qilishni istamagan guruhga yo’l topib kirishga hech qachon harakat qilmaganman, guruh rahbarlariga nisbatan hech qandaygina-kudrat yo’q edi. Ularning ayrimlari menga g’araz bilan qarar edi, ammo men gumrohlik haqidagi toifa qoidalarini hurmat qilgan holda ularning izzat-nafsiga tegmaslikka obdon harakat qilardim. Bu qoidalarga ko’ra, qarindosh-urug’larimdan hech kim, jumladan qaynotam, qaynonam, hatto opam va pochcham meni tan olmasliklari, men ham ularning uyida hatto suv ichmasligim kerak edi. Ular taqiqlarni zimdan chetlab o’tishga tayyor edilar, biroq oshkora tarzda qilishim mumkin bo’lmagan narsani yashiriqcha qilish menga erish tuyulardi”.

Moxandas Gandi yoshligida ikki marta o'g'irlik qilganini shunday eslaydi: «Bir necha qarindosh-urug'larimga taqlid qilib, chekishga ruju qo'ydim. Chekish yoki tamaki hidi menga lazzat bag'ishlardi deb aytolmayman. Shunchaki og'zimdan pag'a-pag'a tutun chiqarish bizlarga yoqardi xolos. Amakim chekuvch edi, biz undan o'rnak olishga qaror qildik, ammo pulimiz yo'qligi uchun amakim tashlagan qoldiqlarni terib ola boshladik. Biroq sigareta qoldiqlari hadeganda topilavermasdi,

bundan tashqari, ularda chekishga loyiq hech narsa qolmagan bo'lardi. Shunda biz xizmatkorning cho'ntagidagi mayda mis chaqalarni o'g'irlashga va ularga hind segaretalari sotib olishga tushdik. Sariq chaqalarni o'g'irlaganimda o'n ikki-o'n uch yoshlarda edim. Navbatdagi o'g'irlikni men o'n besh yoshimda sodir etdim. Bu safar go'sht iste'mol qiladigan akamning bilagidagi oltin baldoqdan bir parcha oltin bo'lagini o'g'irladim. Undan oltin bo'lagini chiqarib olish qiyin emasdi. Akam 25 rupiya qarz bo'lib qolgandi. Xullas bir amallab qarzni to'ladik. Lekin meni vijdon azobi qiynay boshladi. Endi hech qachon o'g'irlik qilmayman deb o'zimga o'zim so'z berdim va hammasi uchun otamdan kechirim so'rashga ahd qildim. Oxiri yozma ravishda tavba qilishga, bu tavbani otamga havola etishga va kechirim so'rashga jazm etdim. Men bir varaq qog'ozga tavbamni yozdimda, otamga berdim. Bu xatda men nafaqat o'z gunohlarimga iqror bo'lgan edim, balki menga tegishli jazo berishni ham so'ragandim. Xat so'ngida jazoni o'zingizdan boshqa odam bersin, deb iltimos qildim, boshqa bunday o'g'rilik qilmaslikka ont ichgan edim.

Otam bu vaqtda bemor edi: unda teshik yara bo'lib, qo'zg'almay yotishga majbur edi. Uning to'shagi oddiy yog'och so'ri edi, xolos. Men unga xatni tutqazdimda, ro'paraga chiqdim. Otam xatni o'qib chiqdida, yig'lab yubordi. Inju tomchilari uning yuzidan dumalab, qog'ozga tushardi. Bir daqiqaga u o'ychan ko'zlarini yumib turdi-da, so'ng xatni mayda-mayda qilib yirtdi. Xatni o'qiyotganda o'tirib olgandi, endi esa yana yotib oldi. Men ham hungrab yubordim. Otamni qanchalik istirob chekayotganini ko'rib turardim. Rassom bo'lganimda bugun ham bu manzarani chizgan bo'lar edim. U xotiramda shunchalik aniq qolgan.

Muhabbatning inju tomchilari yuragimni musaffo qilib gunohlarimni yuvib yubordi. Shunday Muhabbati bo'lgan odamgina uning nimaligini his etardi. Axir muqaddas bitiklarda ham:»Muhabbat o'qlari sanchilgan odamgina uning qudratini biladi» - deb bejiz aytmagan. Men uchun bu amaliy saboq bo'ldi. O'shanda men sodir bo'lgan voqeada faqat ota Muhabbatining huzurinigina ko'rgan edim, ammo bugun bu haqiqiy aximsa ekanini bilaman. Aximsa keng qamrovga ega bo’lgach, udaxl qilgan hamma narsani o’zgartirib yuboradi. Shunda uning hokimiyatiga chek qo’yib bo’lmaydi.

Oliyjanoblik bilan kechirib yuboraverish otamga mutlaqo xos bo'lmagan odat. Men uni jahli chiqadi, qovog'ini uyadi va meni boplab so'kadi, deb o'ylagandim. Lekin u haddan tashqari xotirjam edi.

O'ylaymanki, mening samimiy tarzda iqror bo'lganim tufayli shu hol sodir bo'ldi. Qabul qilish huquqiga ega bo'lgan odamga qilingan samimiy iqror va boshqa gunoh qilmaslik uchun berilgan va'da, ont tavba-tazarruning eng toza shakli hisoblanadi. Mening iqrorim otamni mutlaqo xotirjam etgani va uning menga bo'lgan muhabbatini yanada oshirganini bilib turardim»[20].

Moxandasning yoshlik davri haqida gapirar ekanmiz uning diniy tasavvurlari haqida ham ma'lumot berishni lozim topdik. Vshnuparast bo'lib tugulgan Moxandasga havaliy (ibodatxona)ga qatnash yoqmagan. Uning yozishicha uni o'ziga tortmagan ibodatxonada «sodir etilgan beadab ishlar» haqidagi mish-mishlar qulog'imga yetib kelgandi va mening undan butunlay ko'nglim qolgandi. Shunday qilib havaliy menga hech narsa bera olmasdi. Biroq u yerda olmagan narsani menga enagam, oilamizning keksa oqsochi berdi. U menga Ramnon duosini takrorlab yurishini va shu bilan bu qo'rqinchli narsalardan (men ruhlar va ins-jinslardan qo'rqardim) xalos topishimni taklif qildi. Ilk bolalik damlarimda bu duoni zamzama qilardim. Taxminan shu vaqtlarda ikkinchi akam bilan «Ram Raksha»ni yod oldim va har kuni muttasil ertalablari yuvinib olgandan keyin ovoz chiqarib takrorlardik. Biz to Purbandarda ekanmiz bu odatni sira kanda qilmadik, biroq Rajkotga ko'chib o'tgach, «Ram Raksha»ni unutib yubordim. O'n uch yoshlarimda «Ramayana»ga mukkamdan ketdim. Endi Tulsidasning «Ramayana»sini muqaddas kitoblar ichida eng buyugi deb hisoblayman. Rajkotda «Ramayana»ni qiroat qilishmasdi. Biroq «Bhagavad-gita» o'qilardi. Rajkotda hinduviylikning barcha mazxablariga va turdosh dinlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishni o'rgandim. Ota-onam faqat havaliyga emas, balki Shiva va Ram ehromlariga ham borib turushardi. Gohida ular bizlarni ham birga olib borar, gohi esa o'zimizni yuborar edilar. Jayn rohiblari otamni uyida tez-tez bo'lib turishar, o'z udumlariga xilof ravishda, garchi bizlar Jayn diniga e'tiqod

[20] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.61.

qilmasakda, biz pishirgan ovqatlardan tanovvul qilishardi. Ular otam bilan diniy va dunyoviy mavzularda suhbatlar qurar edilar.

Otamning musulmonlar va pars(zardushtiy)lardan ham do'stlari bor edi. Ular otamga o'z dinlari haqida so'zlar, otam har doim ularning gaplarini hurmat va qiziqish bilan tinglar edi. Ularning xizmatida bo'lib, men ko'pincha shunday suhbatlarda ishtirok etardim. Bular hamasi bir bo'lib menda boshqa dinlarga nisbatan hurmatni, murosani tarbiyaladi.

O'sha vaqtda nasroniylik bundan istisno edi. Unga nisbatan yuragimda nafrat bor edi. Bu besabab emasdi albatta. Nasroniy mubashshirlar, odatda maktabdan sal narida joylashib olishardi-da, hindular va ularning ma'budlarini haqoratlarga ko'mib og'izlaridan bodi kirib, shodi chiqardi. Men bunga chidab turolmasdim. Bir martagina to'xtab, ularning gapini tinglashim yetarli bo'gan edi - ulardan qattiq ko'nglim qoldi. Ayni o'sha paytlarda men g'oyatda taniqli bir hindu nasroniylikka kirganini bilib qoldim. Butun shaharda duv-duv gap: cho'qinganidan keyin u go'sht yeb sharob icha boshlaganmish, libosini o'zgartirganmish, yevropacha ko'ylakda yurib hatto shlyapa kiyib olganmish, bundan juda g'azabim qo'zidi. Odamni go'sht yeyishga, sipirtli ichimlik ichishga va libosini almashtirishga majbur qiladigan din qanaqa din o'zi? Yana menga aytishlaricha, yangi g'ayridin endi o'z ajdodlari dini, ularning urf-odatlari va vatani shanini bulg'aganmish. Bular barchasi menda nasroniylikka qarshi nafrat paydo qilgandi»[21].

Gujoratiy tilidagi axloq odobga oid bir dostondagi «yomonlikka yaxshilik javob ber» ma'nosidagi she'rning hikmati Moxandasning yo'lboshlovchi tamoyili bilan bo'lib qolgan.

[21] Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959. С.21.

I.2. Janubiy Afrikadagi faoliyati.

1891-yilda Londondan oqlovchi diplomini olib qaytgan Moxandas Gandi 1891-1893 yillarda Bombeyda muvaffaqiyatli bo'lmasada advokatlik faoliyati bilan shug'ullangan[22]. Uning faoliyatini yo'lga qo'yishga akasi qo'lidan kelganicha yordam qilgan.

Shu orada Po'rbandardagi bir ispan savdo uyi quyidagi taklif bilan uning akasiga murojaat qiladi: «Biz Janubiy Afrikada ish qilayapmiz. Biz u yerda 40 ming funtsterlinglik jinoiy ish bo'yicha yirik tergov ishi olib boramiz. U anchadan beri cho'zilib kelayapti. Biz eng yaxshi vakil va oqlovchilar xizmatidan foydalanamiz. Agar siz u yoqqa ukangizni yuborsangiz, bu bizga ham, unga ham foyda kelturgan bo'lar edi. U bizning ishonchli shaxsimizga bizning o'zimizdan ko'ra yaxshiroq yo'l-yo'riqlar ko'rsata olardi, bundan tashqari dunyoning yangi qismini ko'rish va yangi tanishlar orttirish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lar edi»[23].

Bu taklifni akasi bilan muhokama qilgan Moxandas Gandi baxtini sinash uchun 1893-yilning aprelida Janubiy Afrikaga yo'l oladi. Akasi uni Abdulla Karim Jhaveriy bilan tanishtiradi. U mazkur e'lonni chiqargan «Dada Abdulla va K» firmasining sherigi edi.

May oyining oxirlarida Natalga yetib keladi. Bu haqda u shunday yozib qoldirgan: »Natal muzofotining bandargoh shahri Durban bo'lib, uni yana Port-Natal deb ham atashadi. Abdulla Shett meni aynan shu yerda kutib oldi. U aslida savodsiz edi, biroq boy hayotiy tajribaga ega edi. U o'tkir aql egasi bo'lib, buni o'zi ham bilardi. U inglizcha gapirishni uncha-muncha eplardi. Har to'kisda bitta ayb deganlaridek, uning ham bir kamchiligi bor edi – u tabiatan shubxaparast edi. Islomga hurmat bilan qarardi va islom falsafasi haqida mulohaza qilishni yaxshi ko’rar edi. Arab tilini bilmasada Quronni yaxshi egallagan, umuman islom adabiyoti bilan yaxshi tanish edi. U haddan tashqari ko’p misollarni bilardi va har lahzada ular tayyor turardi. Yaqindan tanishib olgach, biz diniy mavzularda uzoq

[22] http://www.rubrikon.ru/bse_1.asp
[23] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.116.

suhbatlashadigan bo’ldik.

Kelganimdan so'ng ikki-uch kun ichida bildimki, hindlar bir necha guruhga bo'lingan. Ulardan o'zlarini «arablar» deb bilganlari musulmon savdogarlardan iborat edi. Ikkinchi guruhni «hindlar» tashkil etardi. Yana bir guruh esa pars klerklari edi. Hindu klerklari, agar o'z taqdirlarini «arablar» bilan bog'lamagan bo'lsalar, bu guruhlardagi birortasiga kirmas edilar. Pars klerklar o'zlarini forslar deb atar edilar. Mana shu uchya guruh bir-biri bilan muayyan ijtimoiy munosabatlarda turar edi. Biroq eng ko'p sonli guruh shartnomali yoki erkin ishchilar – tamillar, teligular va Shimoliy Hindistondan kelib chiqqanlar edi. Shartnomali ishchilar Natalga Shartnoma asosida kelgan edilar va besh yil ishlab berishlari kerak bo'lardi. Ularni bu yerda «girmitta»der edilar, bu «girmit» - inglizcha «egriment»(agrement) so'zining buzilgan shaklidan olingan. Dastlabki uch guruh bilan faqat ish yuzasidan munosabatda bo'lar edi. Inglizlar bu odamlarni «kuliy» (hammol)deb atar edilar, hindlarning katta qismi mehnatkashlar sinfiga mansub bo'lganidan barcha hindlarni «kuliy» yoki «samiy» deb atay boshlaganlar. Samiy - ko'plab tamil ismlari qo'shimchasi ko'rinishida uchraydigan tamilcha suffiks bo'lib, sanskritcha «svamiy» dan o'zga narsa emas va tarjimada janob, xo'jayin ma'nosini anglatadi. Shu bois o'zini bilgan hind unga, «svamiy» deb murojaat qilganlarida xafa bo'ladi va bunga javoban quyidagi gapni aytishi mumkin:»Meni «svamiy» deb atashingizga qarshilgim yo'q, ammo siz «svamiy» janob, xo'jayin deganini unitayapsiz. Men esa sizning xo'jayininggiz emasman-ku!» Ba'zilar uni achchiq kinoya o'rnida ishlatganlar, ba'zilari hindlardan jahli chiqqan, so'kkan, kezi kelganda esa ularni urganlar ham: axir «samimiy» ularning nazdida haqoratlovchi laqab hisoblanganda. «Samimiy»dan bu so'z «janob» degan ma'noni anglatadi, degan izohni eshitish bu haqorat bo'lib tuyilgan!

Meni «oqlovchi kuliy» deb atay boshladilar savdogarlarni «savdogar kuliy» derdilar. Shunday qilib, kuliy so'zining dastlabki ma'nosi «hammol» unit bo'lib ketgan va u hindlarga nisbatan odatdagi murojaatga aylanib qolgan».[24]

Vaqt o’tishi bilan advakatlik amaliyotlari ikkinchi darajali bo’lib qolib,unda

[24] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.120-121.

o’zini ko’proq qashshoq odamlarga siyosiy, sotsial nohaqliklarga qarshi kurashda yordam berish istagi paydo bo’lgan edi. U ko’p bora Janubiy Afrikalik hukumatga hind ishchilarining qiyinchiliklari, mahalliy plantatsiya, shaxtalardagi og’ir vaziyat borasida petitsa–yozma murojaatlar bilan chiqishlar qilgan edi. Janubiy Afrikada o’n minglab hind bishchilari qullar singari og’ir sharoitda edi.

Moxandas Gandi bu yerda joylashib, tanishlar orttirayotgan bir paytda firma o'z huquq maslahatchisidan xat oladi. Unda suga tayyorgarlik ko'rish va Abdulla Shet Pretoriyaga o'zi borishi yoki o'z vakilini jo'natishi aytilgan edi. Abdulla Shet Pretoriyaga Moxandas Gandini jo'natadi[25].

Moxandas Gandi Pretoriyadagi barcha hindlarni yig'ib, yig'ilish o'tkazishdan boshlaydi. Yig'ilganlarga Transvaldagi ahvol haqida nutq so'zlaydi. Uning yozishicha «Bu yig'ilishda so'zlagan nutqim aytish, mumkinki, mening birinchi ommaviy nutqim edi. Men so'zga chiqishga yaxshi tayyorlangandim, uni tijoratda halollik haqidagi masalaga bag'ishlagandim. Men xalqimizni atrofdagi ishlarimizga nisbatan iflos sharoitlarga yashayaptilar, deb hisoblar edim va yig'ilganlar e'tiborini shu holatga qaratdim. Men hindular, musulmonlar, parslar, nasroniylar, gujorotlar, madrasliklar, panjopliklar, sindhlar, kachchhlar, suratchilar va hagazolar o'rtasidagi har qanaqangi tafovutlarni unitish zarurligini takidladim.

Xotimada assotsatsiya tashkil etishni taklif etdim, uning nomidan hukumat hind muhojirlari boshidan kechirayotgan zulmlarga oid tasavvurlarga ega bo'lsin va bu ishga qo'limdan kelganicha vaqtimni ham, naqdimni ham ayamasligimni aytdim. Yig'ilganlardan ayrimlarigina inglizcha gapirar edi. Bu mamlakatda inglizchani bilish foydali ekanini anglab men kimning vaqti yetsa, ingliz tilini o'rganishini taklif qildim. Bundan tashqari, agar kelajakda ingliz tilini o'qitish guruhlari tuzilsa, guruh a'zolariga, shuningdek, til bilan shug'ullanishni istovchi shaxslarga tordam berishga va'da qildim.

Guruh tuzilmadi, ammo basharti men ularning oldiga keladigan bo'lsam, uch yigit ingliz tilini o'rganishga tayyorliklarini izhor etdilar. Ulardan ikkisi musulmon - biri sartarosh, biri klerk edi, uchinchisi - hindu, mayda baqqol edi. Shunday qilib,

[25]А.Д. Дридзо, В.И. Кочнев, И.М. Семашко Индийцы и Пакистанцы за рубежом. М. 1978. С.98.

sartarosh mijozlarga xizmat qilish uchun yetarli bo'lgan bilim bilan cheklanib qo'ya qoldi. Ishlarni ingliz tilida bemalol olib borish darajasida egalladi.

Ko'p o'tmay Pretoriyada men bilmagan va hayotiy sharoitlari bilan tanish bo'lmagan birorta ham hind qolmadi. Bu meni Pretoriyadagi Britaniya agenti Jekob de-Vet bilan tanishishimga turtki berdi. U meni huzuriga iistagan vaqtida kirishga va yordam berishga va'da berdi. Meni hind masalasiga oid ayrim xujjatlar bilan tanishtirdi. Tabiiy Shet ham menga tegishli xujjatlarni taqdim etdi. Ulardan Naranjlar respublikasida hindlar bilan nechog'lik shavqatsiz munosabatda bilganlarini bildim».[26]

Moxandas Gandining Pretoriyada bo'lishi unga Transvaal va Noranjlar respublikasidagi hindlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolini chuqur o'rganish imkonini yaratgan edi. Bular haqida u o'zining «Janubiy Afrikada satyagrah tarixi» asarida keng to'xtalib o'tadi[27].

Noranjlar respublikasidagi hindlar 1888 -yilda yoki hatto undan oldinroq maxsus qonunlar bilan qabul qilingan barcha huquqlardan mahrum edilar. Transvaalda 1885 -yilda haddan tashqari qattiq qonun qabul qilingan. 1886 -yilda unga ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan edi. Tuzatishlar kiritilgan bu qonunga ko'ra Transvaalda kirishi chog'ida hindlar uch funt sterling miqdorida jon solig'i to'lashlari shart edi. Ular o'zlari uchun ajratilgan maxsus joylardagina yer olishlari mumkin edi, holbuki ular bu yerda ham mulkchilik huquqidan foydalanmaganlar. Hindlar yana saylash-saylanish huquqidan ham mahrum edilar. Bular bari «osiyoliklar» uchun maxsus qonunda ko'zda tutilar edi, bundan tashqari ular yana «ranglilar» uchun belgilangan boshqa qonunlarga ham bo'ysunishga majbur edilar. «Ranglilar»uchun qonunlarga ko'ra, hindlar tratuarlarda yurish, kechki soat to'qqizdan keyin ruxsatsiz ko'chaga ko'nish huquqiga ega emas edilar.

Bunday ahvolni ko'rib va boshdan kechirib, hind muxojirlari hayotini o'ylab Moxandas Gandi Janunubiy Afrikaga o'zini bilgan hind yashashi mumkin bo'lgan mamlakat emasligini e'tirof etgan. Bu ahvolni qanday o'zgartirish to'g'risida u juda

[26] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.135-136.
[27] Камаров Е.Н, Литман А.Д. Мировоззрение Махандаса Карамчанда Ганди. М., 1969.С.60.

ko'p o'ylagan va bu masalar bilan shug'ullanishga intildi. Bu esa keyinchalik advokatlik ishi Moxandas Gandi uchun ikkinchi darajali ishga aylanib, o'zini butunlay xalqi ozodligi, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashga bag'ishlashiga olib kelgan.[28]

Maxandas Gandining Pretoridagi asosiy ishi "Dada Abdulla K" firmasi topshirgan masala sudda firma foydasiga hal bo'ladi. Dada Abdulla Natalda qanday mavzuga ega bo'lsa, Shet Tayib Hoji Xon Muhammad Pretoriyada ana shunday mavzuga ega edi. Biron bir jamoatchilik ishi usiz o'tmagan. Dada Abdullaning ishi kichik ish emasdi. Da'vo pulining umumiy miqdori 40 ming funt sterlingni tashkil etardi. Tijorat bitimlaridan kelib ciqqan holda u chigallashib ketgan hisob-kitoblardan yuzaga kelgandi. Qisman da'vo berilgan veksillarga asoslansa, qisman veksil berish va'dasini tashkil etgan majburiyatlarga asoslanardi. Himoya shunga tayanib ish ko'rar ediki, qarz majburiyatlari yolg;on tarzda tuzilgan va yetarli ta'minotga ega bo'lmagan. Manashu chalkash ishga ko'plab mojarolar ilashib qolgan va turli-tuman qonunlar qo'llangan edi.

Har ikkala tomon ham eng yaxshi himoyachilar va vakolatli shaxslarni yollagandi. Shunday qilib, ularning ishini o'rganish uchun ajoyib imkoniyatga ega edim. Menga vakolatli shaxs davogarning ishini tayyorlashni va da'vogar foydasiga dalillari olib qo'yishimni topshirdi. Ish meni qattiq qiziqtirib qo'ydi, unga butun vujudim bilan kirishib ketdim.

Bu yerdagi bir yillik faoliyati haqida u shunday yozib qoldirgan «Pretoriyada bir yil bo'lganligim hayotimni boyitib yubordi. Aynan shu yerda men ijtimoiy faoliyatning qaysidir masalalarini o'rganish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldim. Aynan shu yerda diniy ruh mening hayotiy tayanchim bo'ldi va shu yerda yana huquq amaliyotining haqiqiy bilimini oldim. Shu yerda men yosh oqlovchi katta oqlovchining xonasida biladigan narsalarni o'rgandim va shu yerda nihoyat mendan haqiqiy oqlovchi chiqishiga ishonch qila oldim. Oqlovchi muvaffaqiyatining siri qandayligini Pretoriyada bildim. Men Natalga qaytib keldimda Hindistonga qaytish taraddudini ko'ra boshladim. Ammo Abdulla Shett

[28] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984. С.15

meni tantanali kuzatuv marosimisiz qo'yib yuboraveradigan odam emadi. U mening sharafimga Saydenhemda ana shunday ziyofat berdi.

Butun kunni o'sha yerda o'tkazishi ko'zda tutilgandi. Ro'znomalarni ko'zdan kechirib o'tirarkanman, tasodifan ko'zim ro'znoma sahifasi burchagidagi «Hindlarning saylov huquqi» sarlavhali maqolaga tushdi. Unda parlament ko'rib chiqishi kerak bo'lgan qonun loyihasi haqida eslatib o'tilgandi, unga ko'ra, hindlar Nataldagi parlament a'zolarini saylash huquqidan mahrum etilgan edi. Men bu qonun loyihasi to'g'risida hech narsa bilmas edi, boshqa mehmonlar ham u haqida tuzukroq tushunchaga ega emas edilar.

Xayrlashuv marosimi ishchi qo'mita majlisida aylanib ketdi. Men yana bir oy qolishga ahd qildim. Shunday qilib, Janubiiy Afrikada Xudo hayotim tamal toshini qo'ydi va milliy qadr-qimmat uchun kurash urug'ini dilimga soldi».[29]

Maxandas Gandi uchun oqlovchilik amaliyoti endi ikkinchi darajali ishga aylanadi. Nataldagi keyingi faoliyatini butunlay jamiyatchilik ishiga qaratadi. Hindlarni saylash huquqidan mahrum etgan qonun loyihasi bilan bildirilgan norozilikning o'zi ozlik qilardi. Koloniyalar vaziriga ta'sir o'tkazish uchun esa doimiy jamiyatchilik tashkiloti kerak bo'lgan. 1894-yil 22-mayda hind savdo firmasining boshlig'i Abdulla Dadaning boy xonadonida mahalliy hind burjua va intelgensiya vakillarining yig'ini bo'lib o'tadi. Butun majlisda Gandi Natalda Hindiston Milliy Kongressini tashkil qilish masalasi bilan chiqadi[30].

1894 -yilda shunday tashkilot tuzishga qaror qilgan Gandi va do'stlari uchun unga nom topish qiyin kechgan. Moxandas Gandining yozishicha « Uni hech bir firqa bilan qiyos qilib bo'lmas edi. «Kongress» nomi, mening bilishimcha, ingliz konservatorlari (aqidaparastlari) orasida urf emas edi, ammo Kongress Hindistonning hayotiy markazi hisoblanardi. Men uni Natalda ommalashtirish niyatida edim. Bu nomdan voz keshish qo'rqoqlikni bildirar edi. Shunday qilib, bu masala bo'yicha o'z mulohazalarimni bayon qilib, yangi tashkilotni «Natal hind Kongressi» deb atashni maslahat berdim va 22 -may kuni Natal Hind

[29] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.146.
[30] Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007. С.76.

Kongressining tug'ilgan kuni bo'lib qoldi».

Tashkilot Angliya kolonial hukumat bilan hamkorlikni yaxshilashga intilar edi. Uning ustavi oddiy bo'lib, tashkilotga savdo firma egalari, kichik rasta egalari, kontora xizmatkorlari a'zo bo'lib, a'zolik badali yuqori bo'lgani bois ishchilar unga a'zo emas edilar. Natal Hind Kongress a'zolari ilk ishlarini mahalliy aholining ahvoli bilan tanishishdan boshladilar[31].

Koloniyada tug'ulib, talim olgan hindlar bilan ishlash Kongress faoliyati jihatlaridan bittasi edi. Kongress homiyligi ostida koloniya ahli hindlarning ta'lim olish masalalari bo'yicha Assotsiatsiya tuzilgan edi. Assotsiatsiya a'zolari, asosan, yigitlardan iborat edi. Ulardan nomigagina badallar olardi. Assotsiatsiya ukarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganar, hind savdogarlari bilan yaqinlashtirishga, shuningdek ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etishga imkon yaratar edi. Assotsiatsiya a'zolari muntazam yig'ilib, turli masalalar bo'yicha maqolalarni o'qir va muhokama qilar edilar. Assotsiatsiya qoshida kutubxona ham bo'lgan.

Natal Hind Kongressi koloniya ahli va idora xizmatchilari bo'lgan hindlardan iborat edi, malakasiz ishchilar va shartnomali ishchilar ular doirasiga kirmagan. Kongress hamon ular uchun yot bo'lib qolmoqda edi. Ular badal to'layolmas va kongressga kirmas edilar. Ular Kongressga mehr qo'yib qolishlari uchun Kongress ularga xizmat qilishi kerak edi.

Kongressning vazifalaridan biri targ'ibot bo'lib, bu orqali hindlarning haqiqiy ahvolini Janubiy Afrika va Angliyadagi inglizlarga va Hindiston hukumati va xalqiga tushuntirish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda Moxandas Gandi o'zini xo'rlangan yurtdoshlari oldida qarzdorligini his qilib ikkita murojaatnoma yozgan. Birinchisi «Janubiy Afrikadagi barcha biritaniyaliklarga murojaat» deb, ikkinchisi esa «Hindlarning saylash huquqi. Da'vat» deb atalgan. Dalillarga tayangan holda yosh advokat jamoatchilik va hukumatni Janubiy Afrikadagi hindlarning haqiqiy ahvoliga qaratgan edi.[32]

Bu ishlar natijasida Janubiy Afrikada uzoq vaqt qolib ketishiga ko'zi yetgan

[31] А.Д. Дридзо, В.И. Кочнев, И.М. Семашко Индийцы и Пакистанцы за рубежом. М. 1978. С.99.
[32] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984. С.16

Moxandas Gandi xotin-bolalarini olib kelish uchun 1896 -yilda Hindistonga yo'l oldi. Yaxshigina tajribaga ega bo'lgan va odamlarga kerakligiga ishonch hosil qilgan Moxandas kelgach, bu yerdagi jamoatchilik fikriga ta’sir o'tkazish va Janubiy Afrikadagi hindlar ahvoliga nisbatan qiziqish uyg'otishni nazarda tutgan. Uning yozishicha «uch funt sterlingli soliq haqidagi masala hamon ochiq qolmoqda edi. Tobu soliq bekor qilinmas ekan , tinchlik bo'lishi mumkin emasdi. Ammo mening yo'qligimda ta’lim masalalari bo'yicha Assotsatsiya va Kongress ishga kim rah rahbarlik qiladi? Men ikki kishi haqida o'ylab yurardim: Odamjiy Miyonxon va Paes Rustamjiy. Tijoratchilar ichida endi xodimlar ishiga yaraydiganlar talaygina edi. Biroq kotiblik majburiyatini muntazam bajara oladigan, shuningdek, hind jamoasi hurmatini qozongan eng yetuklaridan manashu ikkalasi edi. To'g'ri, kotib ingliz tilini yaxshigina bilishi kerak edi.Men Kongressga Odamjiy Miyonxonni tavsiya etdim va Kongress uni kotib sifatida tayinlaganini tasdiqladi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, bu g'oyat to'gri tanlov bo'lgan edi. Odamjiy Miyonxon birso'zligi, sabrligi, xayrixohligi va ziyrakligi bilan ajralib turardi va kotiblik ishi uchun oqlovchi diplomli yoki Angliyada olingan oliy ma'lumotli odam bo'lishi shart emasligini barchaga isbotlab berdi»[33].

Moxandas Gandi Vataniga kelib rejasi asosida qator ishlarni amalga oshirdi. O’zining qisqa vaqt Hindistonda bo’lganida ingliz tilida Janubiy Afrikadagi hindlarning huquqsiz holati, ularning yashash sharoiti va ahvoli to’g’risida bromyura e’lon qildi. U yashil rangda chiqqanligi uchun ham keyinchalik “Yashil bromyura” nomini olgan. U o’n ming nusxada chiqarilib barcha gazeta redaksiyalariga va Hindiston partiyalari yetakchilariga tarqatilgan edi. Reyter agentligi Angliyaga bu bromyura to’g’risida telefon orqali xabar beradi. Bu xabar shov-shuv tarzda Natalga yetib keladi va yevropislar o’rtasida shiddatli norozilikka sabab bo’ldi. Hindistonda Maxatma Gandi majlislarda, mitinglarda Janubiy Afrikadagi holat to’g’risida chiqishlar qildi[34].

Xotini Kasturbayni, to'qqiz va besh yoshli ikki o'g'lini hamda o'n yoshki

[33] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.165.
[34] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.18.

qizini olib Moxandas 1896-yil 28-noyabrda Bombeydan Janubiy Afrika yo'nalishi bo'yicha 2 ta paraxot "Kurlyand" va "Naderi"da hindlar Janubiy Afrikaga qarab yo'l oldi. Moxandas Gandi 19-dekabrda Durbanga yetib keladi. Uni va u bilan kelgan ikki kemadagi hindlarni qaytarib yuborish maqsadida mahalliy hukumat va oqtanlilar qattiq kirishadilar. Yigirma uch kunlik karantindan so'ng kemadagilar sohilga tushadi. Moxandas Gandi qarshilikka uchraydi, uni toshbo'ron qilishadi.

1901 yilda yana Hindistonga keladi. Kongressga Janubiy Afrika bo'yicha rezolyutsiya kiritadi. Afrikadan xat keladi, unda «koloniyalar bo'yicha imperiya vaziri Jozef Chemberlin kelishi kutilmoqda tezroq qayting» deyilgan edi.

Moxandas Gandining Durbanda Jozef Chemberlin bilan uchrashuvi foydasiz bo'ladi. Shunday bo'lsada u hindlarning ahvoli haqida ma'lumot tayyorlab unga topshirmoqchi bo'ladi, ammo uni ikkinchi bor qabul qilmaydi. Boshqa do'stlari orqali u yozgan ma'lumot Jozef Chemberlinga beriladi.

Janubiy Afrikada 1899 yilda boshlangan ingliz-bur urushi 1902 yilning 31 mayida tinchlik shartnomasi bilan tugaydi. Bunda Moxandas sanitar guruhi tashkil etib, unga boshchilik qiladi. Moxandas Gandi 1904 -yildan «Indian Opinon»(Hind fikri) haftalik gazetasini chiqara boshlaydi. Angliya yozuvchisi Jon Raskin asarlarini o'qib katta ishtiyoq olgan Moxandas Gandi Durbon yaqinidagi Fenik qishlog'idan yer olib, gazetani nashr qilishni qishloqqa ko'chiradi va koloniya tashkil etadi. Unda yashovchilar gazeta chop qilish bilan birga yerga ishlov berib kamtarona ehtiyojlari uchun pul topganlar. Moxandas Gandi o'z gazetasida 1905-yilgi Rossiyadagi revolyutsion harakatlar to'g'risida ham yozadi.[35]

1906 yilda Natalda ingliz-bur urushidan so'ng ko'p o'tmay mahalliy qabilalar - zuluslarning antikolonial qozg'aloni boshlanadi. Ionnesburgda oqlovchi bo'lib ishlayotgan Moxandas Gandi Natal hukumatiga qilgan taklifi inobatga olinib, Natal Qurolli kuchlariga berilgan hind sanitar guruhiga boshchilik qiladi[36].

«Guruhimiz bir ming yuz nafar odamdan iborat bo'lib, shulardan qirqtasi komandirlar edi. Uch yuzga yaqini erkin hindlar bo'lib, qolganlari shartnomadagi

[35] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984. С.35.
[36] http://www.rubrikon.ru/bse 1.asp

ishchilar edi. Garchand biz o't chizig'i ortida harakat qilishimiz lozim bo'lib, «Qizil Xoch»himoyasi ostida bo'lsakda, nozik paytda bizni oldingi saflarga o'tishimizni so'rashdi. Olti haftalik xizmatdan so'ng guruh tarqatib yuborildi. Bizning kamtarona ishimiz o'shanda og'izga tushgandi va bu hindlarga bo'lgan e'tiborni oshirib yuborgandi. Ro'znomalarda bizning sharafimizga quyidagi naqorat bilan qasidalar chop etilgandi:"Ne bo'lsa ham bizlar Imperiya o'g'lonlarimiz".

Hind jamoasi tashkiloti asta-sekin yaxshilana boshladi. Men shartnomadagi hindlar bilan yaqindan tanishdim. Ularning ancha ko'zi ochilgan va hindlar, musulmonlar, nasroniylar, tamillar, gujoratlar, sindhiylar bir Vatan farzandlari degan ishonch-e'tiqod ularning onglariga chuqur o'rnashib qolgan edi. Hamma oqtanlilarning hindlarni tahqirlaganlari uchun o'z ayblarini yopib yuborishlariga ishonar edi. O'shanda bizga oqtanlilarning nuqtai-nazarlari jiddiy o'zgargandek tuyulardi. Urush vaqtida ular bilan g'oyat iliq munosabatlar o'rnatilgan edi. Bizga minglab ingliz askarlari bilan ish ko'rishimizga to'g'ri kelgandi. Ular biz bilan do'stona munosabatda bo'lar va xizmatlarimiz uchun tashakkurlar aytar edilar».[37]

1906 -yil 22 -avgustda Transvaal gazetasida «Qora qonun" loyihasi e'lon qilinadi. Unga ko'ra Transvaalda yashovchi har bir hind erkak, ayol hatto bola sakkiz yoshdan politsiya ro'yxatidan o'tib, unga o'z ijtimoiy holatini bayon etishi, barmoqlari izlarini qoldirishi va guvohnoma olishi kerak edi. Bunday xujjati yo'qlarga qamoq yoki deportatsiya qilinishi haqida yozib chiqadi. Tabiiyki, barcha musulmon hindlar xotini qizini bu narsadan himoya qilish uchun jonlarini fido qilihga ham tayyor edilar[38]. Ioxannesburgda "Imperial" teatri binosida hind jamoasi vakillarining mitinglari bo'lib o'tadi. Bu qonundan norozi bo'lgan hindlar agar qonun qabul qilingan taqdirda ham unga bo'ysunmaslik haqidagi Moxandas Gandining rezolyutsiyasini qabul qildilar. Moxandas Gandi boshchiligidagi bunga qarshi kurash juda qiyin kechdi va cho'zilib ketdi. Moxandas bir necha bor Londonga borib vazir va deputatlar bilan uchrashdi, uni aldashdi. U norozilik namoyishlarini tashkil etib bir necha bor qamaldi. 1908-yil 11-yanvarda

[37] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.202.
[38] А.Д. Дридзо, В.И. Кочнев, И.М. Семашко Индийцы и Пакистанцы за рубежом. М. 1978. С.100.

Moxandas Gandi Ioxannesburgda qarshilik namoyishini tashkillashtiradi. Natijada Moxandas ikki oyga qamoqqa tushadi.

1909-yilning noyabr oyida Moxandas Gandi yana Angliyaga keladi. Bota va Smets angliya hukumati bilan Janubiy Afrika bilan ittifoq tuzish maqsadida faol kelishuv muzokaralarini olib boradi. Bu vaqt oralig'ida Moxandas Gandi mahalliy hind ommasi bilan muloqotga kirishadi. Qolaversa, "Hind svaradj" kitobini yozadi. Janubiy Afrikadan qaytgan Moxandas Gandi "Tolstoy firmasini" tashkil qiladi. Aynan shu yerda u bo'ysunmaslik risolalarini tuzadi. 1910-yil 7-sentabrda shaxsan Tolstoy unga noma yuborib, ularning faoliyatini bilish istagini aytadi. Gandining maslahatlari bilan Natal to'g'chilari namoyish boshlaydilar. Bunday namoyishlar kun sayin ko'payib, namoyishchilarning soni 20 ming kishidan oshib ketdi. Moxandas Gandi yana qamoqqa olinadi, notinchliklar ko'payib hukumat uni ozod qilishga majbur bo'ladi.

Moxandas Gandi 1913-yil 6-noyabrda Nataldan Transvaalga tinchlik yurishi namoyishini boshlaydi. Bu namoyish uzundan-uzun kolonnaga aylanib, uning safi yanada kengaymoqda edi. Gandi uchinchi bor qamoqqa olinadi, biroq noroziliklar oshib ketgani tufayli uni qo'yib yuborishga majbur bo'ladi. Afrikada voqealar hind xalqini uyg'otdi. Angliya hukumatining tinchi buzildi. Ular butun Hindistonga bu holatning t arqab ketishidan qo'rqar edilar. Angliya hukumati buni hal qilishning choralarini qidira boshladi. Oxiri 1914 yilning 30-iyunida Moxandas Gandi va Transvaal vaziri Yan Smets o'rtasida bitim imzolanadi. unga ko'ra jon boshiga solinadigan soliq va haqoratomuz irqiy qonunlar bekor qilinadi. Bu Janubiy Afrikadagi hindlarning va ularning rahnamosi Moxandas Gandining yirik siyosiy g'alabasi edi.

Moxandas Gandi Janubiy Afrikada yana ikki o'g'illi bo'ladi. U La Mansh orqali Vataniga qaytayotganida jahon urushi boshlanadi. 1915-yil yanvarda 46 yoshli Moxandas Gandi Bombeyga yetib keladi.

Buyuk shoir, nobel mukofotining sovrindori Robindranat Tagor (1861-1914) Moxandasni "faqirlik libosidagi Maxatma" degan edi. Shundan so'ng bu nom uning asosiy nomiga aylandi, garchi o'zi bunga qarshilik va norozilik bildirsa

ham. Maxatma – buyuk qalb ma’nosini anglatadi. Oddiy xalq keyinchalik uni xudoning elchisi, karomat ko’rsata oladigan va Hindiston ehtiyojlarini o’ziga ola biladiganbuyuk inson debtasavvur qilmasligi uchun ham bu nomga qarshilik bildiradi. U o’zini avliyo va payg’ambarlarga sira o’xshamaydigan oddiy odam deb bilgan. Bu borada u shunday yozadi: “Siyosat sohasidagi izlanishlarim faqat Hindistonda emas, balki qandaydir darajada butun “Tamaddumlashgan” olamga endi ma’lum va mashhur edi. Men uchun ular katta qimmat kasb etmas edi. Shu izlanishlarim tufayli olgan Maxatma unvoni men uchun yanada kamroq qimmatga ega edi. Bu unvon ko’pincha meni qachon bo’lmasin suyuntirganini sira eslolmayman”[39].

Moxandas Gandi Janubiy Afrikadagi yigirma yillik faoliyati davomida kuch ishlatmasdan qarshilik ko'rsatish - «satyagrax» ni ishlab chiqadi. Uning yozishicha: «endilikda «satyagrax» deb nomlangan tamoyilning o'zi bu atama paydo bo'lishidan oldin yuzaga kelgan edi. Dastlabki vaqtda buning nima ekanligini men ham bilmagan edim. Ushbu tamoyil tavsifi uchun gujoratiy tilida dastavval inglizcha «sust qarshilik ko'rsatish» iborasidan foydalandik. Biroq bir kuni ovrupaliklar bilan suhbatda shunga amin bo'ldimki, «sust qarshilik ko'rsatish» atamasi haddan tashqari tor ekan, ojizning kuchliga qarshi qurolini anglatar ekan, bu qandaydir nafrat bilan yo'g'rilgan bo'lib, oxirida zo'ravonlikka esh bo'lib ketar ekan. Men hind harakatining yolg'on talqinini ko'rsatishga va haqiqiy tabiatini tushuntirib berishga qaror qildim. O'z-o'zidan ravshanki, o'z kurashlarini ifodalash uchun hindlar yangi atamani o'zlari topishlari kerak edi.

Biroq qancha bosh qotirmay, hech munosib atama miyamga kelmadi. Shunda «Indiyan opinon « mushtariylari orasida shu ma'nodagi eng yaxshi iboraga tanlov e'lon qildi. Moxandas Gandi «satagrah» (sat -haqiqat, agrah - qatiylik) so'zini o'ylab topdi va mukofot oldi. So'zni yanada tushunarliroq qilishga intilib, mwn uni «satyagrax» ga o'zgartirdim va bu atama gujoratiy tilida o'shandan beri kurashimiz ifodasi bo'lib qoldi[40].

[39] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.279.
[40] Сарвепалли Гопал. Джавохарлал Неру “Биография”. Том I 1889-1947. М.1954. С.31.

«Satagrah oldindan puxta o'ylab olingan reja natijasida qabul qilinmagan edi. U birdaniga xohish-irodamdan tashqarida paydo bo'lgandi. Biroq shu narsni yaqqol ko'rib turardimki, mening barcha oldingi qadamlarim muqarrar ravishda shunga olib kelardi. Mening vazifam zo'ravonlar bilan kurashishning barcha qonuniy vositalarini xalqqa ko'rsatish. Mustaqil bo'lishni istagan millat ozodlikka erishishning barcha yo'l va usullarini bilishi kerak. Odatda so'ngi vosita sifatida zo'ravonlikka yopishadilar. Satagrah aksincha o'zida kurashning mutlaqo kuch ishlatmaslik uslubini namoyon etadi. Qanday va qaysi darajada foydalanishni aholiga tushuntirishni o'zimning vazifam deb bilaman. Ingliz hukumati - kuchli hukumat ekanligiga shubxa qilmayman, ammo satagrah -oliy darajadagi ta'sirchan vosita ekanligiga ham dilimizda zarracha shubha yo'q» deb aytgan ekan Moxandas Gandi.

Satyagraha qarshilik ko'rsatishni ikki usulini o'zida tutardi. Biri «hamkorlik qilmaslik», ya'ni davlat xizmatidan bosh tortish, birinchi navbatda armiya, politsiya. Kolonial vakillik organlarga bo'ladigan saylovlarda ishtirok etmaslik, davlat maktablariga bormaslik, ingliz mollariga baykot e'lon qilish, davlat mukofotlarini olmaslik, o'zini-o'zi ta'minlash. Ikkinchisi “fuqarolik bo'ysunmasligi”,ya'ni hukumat chiqargan qonunlarni bajarmaslik, asosan soliqlarni to'lamaslik, axloqqa zid qonunlarga bo'y sunmaslik, oqibatda qamoqqa tushsa chidashlik va boshqalar.[41]

Satyagrahaning maqsadi raqibni ittifoqchi va do'stga aylantirish. Tahdid va zo'ravonlikka nisbatan vijdonga chaqirish samarali deb hisoblanadi. Asosiy g'oyasi raqibni vijdoni va aqliga ta'sir etish. Hamkorlik qilmaslik raqibning o'ziga emas, uning noto'g'ri ishlari, hatti -harakatiga qaratilgan. Bular orqali ularni xato, yomon ishlardan vos kechishga undagan. Raqibiga hurmat, oqko'ngillik bilan munosabatda bo'lish uqtirilgan. Satyagraha ojizlarni emas, aksincha ruhan kuchlilarning kurashidir.

[41] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.24.

Ikkinchi bob. Maxatma Gandining ijtimoiy va siyosiy qarashlari

II.1. Maxatma Gandi va Hindiston Milliy Kongressi

Maxatma Gandining 1885-yilda tashkil topgan Hindiston Milliy Kongressi (HMK) bilan birinchi bor tanishuvi Janubiy Afrika hindulari aholini ko'tarib chiqish bilan bog'liq edi[42]. Bu haqda u shunday yozadi: «Hindistonga qaytib kelgach, bir muncha vaqt mamlakat bo'ylab aylandim. 1901-yili Kalkuttaga hozirda marhum mister (keyinchalik ser) Dinshou Vach raisligida Kongress majlisi bo'lib o'tdi. O'z-o'zidan ravshanki, men Kongress majlisiga yo'l oldim va u yerda uning ishi bilan birinchi marta tanishdim. Kongress ishlagan muhit haqida batafsilroq hikoya qilib beraman. Ko'p kishilar bir-birlarini ayamay so'kar edilar. Bordiyu, siz ulardan biriga bir ish topshirgudek bo'lsangiz, u buni boshqa bittasiga topshirar, u esa o'z navbatida, uchinchisiga topshirar edi va hokazo. Diplomatlarga kelsak ularning qo'lidan bir ish kelmas edi.

Men bir qancha ko'ngillilar bilan do'stlashib oldim va Janubiy Afrika haqida ularga gapirib berdim, ular o'zlarining faoliyatsizliklaridan biroz xijolat tortishdi. Men ularga jamiyatga xizmat qilishning pinhoniy ma'nosini tushuntirishga urinib ko'rdim. Aftidan, ular meni tushunishdi. Biroq xizmat qilish ruhi birdaniga yuzaga kelmaydi. U birinchi navbatda xohish borligini, undan keyin esa tajribani ko'zda tutadi. O'sha soddadil, ko'rkam yigitlarda xohishdan ko'pi yo'q, ammo tajriba degani anqoning urug'i edi. Kongress yilda bir marta uch kunga yig'ilarkan, qolgan vaqtda hech bir ish qilmas ekan. Uning uch kunlik majlislaridagina ishtirok etib, qanaqa tajriba to'plab bo'lardi? Delegatlar ko'ngillilardan hech nimasi bilan farq qilmasdi. Ularda tirnoqcha ham tajriba yo'q edi. Ularning o'zlari hech ish qilmas edilar. «Hoy, ko'ngilli, uni qil, hay ko'ngilli buni qil», – ular muttasil bir-birlariga shunday buyruq berar edilar, xolos.

Hatto shu yerda ham men daxlsizlik muammosiga duch keldim. Tamillarning oshxonasi boshqa hammanikidan bir chetda joylashgan edi. Tamil delegatlar yot odamlarning ular ovqatiga bir karra nazar tushishidanoq o'zlarini haqoratlangan his etar edilar. Shu bois ular uchun hammanikidan devor bilan

[42] Колъцов Н.Н. Индия:40 лет боръбы и свершений. М.1987. С.9.

to'silgan Kampaundida maxsus oshxona qurilgan edi. U yer har doim tutun va dim bo'lar edi. Bu bir vaqtning o'zida, yemakxona va yuz-qo'l yuvadigan joy hisoblanardi – tuynik-derazasiz qop-qorong'u bir quti. U menga varndhari latifasini eslatib yubordi.

Bordiyu, Kongress delegatlari o'rtasida noittifoqlik mavjud bo'lsa, – o'yladim men uh tortib, – uning sababchilari orasida qanchalik tarqalganini tasavvur qilsa bo'ladi.

Delegatlar tozalikka zid sharoitlarda yashardi. Hammayoq chilp-chilp loy. Atigi ikki-uchtagina jamoat hojatxonasi bor edi; u yerdan anqiyotgan badbo'y hid haligacha dimog'imdan ketmay, nafratimni uyg'otadi. Bordiyu, Kongress sessiyasi uzoqroq davom etadigan bo'lsa, o'lat tarqalishi hech gap emasdi, chunki u yerdagi sharoit bunga to'la qulaylik tug'dirib bormoqda edi»[43].

Kongressda Maxatma Gandi kiritgan masala bo'yicha rezolyutsiya qabul qilinadi. Shu o'rinda uning Janubiy Afrikadagi hindular ahvoliga oid quyidagi fikrlari e'tiborga molik:»Aholining ma'lum qatlami (bizga eng muhim ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi)hindularda «daxlsiz» deb ataladiganlari shaharlar va qishloqlarning chekkalariga haydab chiqarilganlar. Mana shu chekka mahalalar gujoratiyda «dhedvado»deb ataladi va bu nom nafratli ma'nonin anglatadi. Xuddi shundayin qachonlardir nasroniylar Ovrupasida yahudiylar «daxlsizlar»deb, ularga ajratilgan mahallalar esa haqoratomuz «getto»nomi bilan atalgan. Shunga o'xshab bizning kunlarimizda Janubiy Afrikada biz «daxlsizlar» bo'lib qolganmiz. Endryusning o'zini o'zi qurbon qilishiyu Shastriyning sehrli tayoqchasi bizning bu badnomlikdan qutila olishimizga qanchalik yordam berishini kelajak ko'rsatadi.

Boshqa barcha xalqlardan farqli o'laroq, yahudiylar o'zlarini Xudo suygan bandalar, deb hisoblaydilar. Bu shunga olib keldiki, ularning avlodlari g'ayrioddiy va nohaq g'azabga girifdor bo'ldilar. Qariyb shundayin kishilar o'zlarini oryalar yoki taraqqiy etgan xalq deb, o'z urug'doshlarining bir qismini esa nooryalar yoki «daxlsizlar» deb ataganlar. Bu ham shunga olib keldiki, haqqoniy bo'lsada, Janubiy Afrikada faqathindular emas, balki yana musulmonlarni ham, parslarni ham

[43] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.207-209.

g'yrioddiy intiqol o'z komiga tortib ketdi, chunki ularning barchasi bir mamlakatdan kelib chiqqan bo'lib, hindu birodarlari singari ularning badani ham qora bo'lgan».

HMK ning daxlsizlikni yo'q qilishga qaratilgan faoliyatida Maxatma Gandi asosiy kuch edi. 20-yillarning boshida HMK ning ko'ngillilar guruhi har bir a'zosi qabul qiladigan qasamyod matniga Maxatma Gandi tashabbusi bilan hindularga "daxlsizlik" haqidagi band kiritilgan edi. Unga ko'ra "men daxlsizlikni yo'q qilinishini zarur va adolatli ekanligiga ishonaman va ular bilan aloqa bog'lashga va ularga yordam berishga harakat qilaman" der edi[44].

Hindiston Milliy Kongressi Maxatma Gandi Janubiy Afrikadan qaytganda ichki kelishmovchiliklar tufayli chuqur inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Bu inqirozdan birinchi jahon urushi yillarida chiqa boshlagan edi. Unga yangi g'oyalar, kurashning yangi usullari, shakllari kerak edi. Ularni 1915 yilda Hindistonga kelgan Maxatma Gandi olib keldi.[45]

Besh yoki undan ko'proq yilga tuzilgan shartnoma bo'yicha Hindistondan Janubiy Afrikaga kelib qolgan ishchilar shartnomada (yoki shartnoma qilingan) ishchilar deb atalgan. Garchi 1914 yilda tuzilgan Smets-Gandi deb atalmish bitim bo'yicha Natalga kelgan har bir shartnomadagi ishchidan olinadigan uch funt sterling soliq bekor qilingan bo'lsada, Hindistondan ishchilar oqib kelish muammosi hamon alohida e'tibor qilishni talab etardi.

1916-yil martida pandiy Madan Mo'han Malviyajiy Hindiston qonunchilik kengashiga ishchilarni shartnomalash tizimining bekor qilinishi to'g'risidagi rezolyutsiya loyihasini kiritgan. Shu taklif munosabati bilan lord Xarding «janobi oliylari hukumatidan vaqti kelib bu tizimni bekor qilish to'g'risida va'da olgan» ligini aytadi. Biroq men Hindiston bu qadar noaniq va'dadan qanoat hosil qilmaydi va bu tuzumning bekor qilinishi uchun beto'xtov targ'ibot kompaniyasini boshlab yuborishi kerak deb hisoblardim. Shu paytgacha Hindiston shartnomalashga boqibeg'amligi bois chidab kelar edi. Bu baloni daf etish uchun xalq kompaniyani

[44] Азии и Африки сегодня. 1999 г. №12.
[45] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.28.

muvaffaqiyat bilan boshlab yuboradigan payt keldi deb bilardim. Men bir qancha maqolalar e'lon qildim va Hindiston jamoatchiligi shartnomalashning bu tizimini butunlay bekor qilish fikrida ekanligiga ishonch hosil qildim. Bu orada vitse-qirol tushuntirib aytdiki, "vaqti bilan tizimni bekor qilish shu ma'nodaki, o'rniga boshqa choralarni joriy etish uchun yetarli bo'lgan birmuncha oqilona muddat o'tishi bilan shartnomalash bekor qilinadi".

Shunday qilib, 1917 yil fevralida pandit Malviyajiy shartnomalash tizimini zudlik bilan bekor qilish to'g'risida qonun loyihasi kiritishga ruxsat so'radi. Lord Chelmsford bunday ruxsatni bermaydi. Shunda men shartnomalashni bekor qilish uchun kampaniya o'tkazish maqsadida butun mamlakat bo'ylab safar taraddudini ko'rishga qaror qildim. Biz shartnomalash tizimini bekor qilish uchun eng so'ngi muddat sifatida 31-iyul tayin qilinadi. Butun Hindiston bo'ylab o'tgan ommaviy mitingda xuddi shunday qarorlar qabul qilingan edi. Natijada 31 iyulgachayoq hukumat Hindistondan shartnoma bilan ishchilarni xorijga chiqib ketishiga barham berildi, deb e'lon qilinadi.

1918-yil Angliya hukumati Dehlida "harbiy konferensiya"sini chaqirishga qaror qiladi. Vitse-qirol Chelmsford Maxatma Gandini bu konferensiyada taklif qiladi. Chelmsford Maxatma Gandini o'z rejalarini amalgam oshirish ya'ni hind resusrlari, material resusrlar, odamlarni urushni tugatish maqsadida foydalanishda qo'l keladi deb chaqirgan edi[46]. Biroq Maxatma Gandi o'zining fikrida qat'iy turgani bois undan foydalana olmaydi. Urushda Angliya g'alabaga erishishi uchun Hindistonni Versal tinchlik konferensiyasida qatnashishga taklif qiladi va unga aynan Maxatma Gandini chaqirishadi, biroq Gandi bu taklifga rad javobini beradi. Angliya hukumati yana bir fars(yolg'on o'z ishini amalgam oshirish maqsadida)ni ishga soladi ular Hindistonni "Teng huquqli"lar Liga a'zosi bo'lishini talab qilib chiqadi, maqsad esa bu diplomati aksiya ortida Angliya Ligada yana bitta boshqaruv derjava ovoziga ega bo'lar edi. Hindiston ishlari ministri Montegyu va vitse-qirol Chelmsford Hindiston Angliya siyosati to'g'risida daklad tayyorlashdi shunga asosan 1919-yil Hindistonni boshqarish qonuni qabul qilinadi. Qolaversa,

[46] Синха Н.К. Банерджи А.Ч. История Индии. М.1954. С.399.

angliyaliklar Hindiston iqtisodi, ichki, tashqi siyosatini, moliyaviy ishlarini to'liq boshqarar edi. 1919-yil Angliya hukumati Roulett qonuni ham qabul qiladi[47]. Unga ko'ra revolyutsiya faoliyatiga aloqador shaxslarni, antihukumatga chiqqanlarni hukumat va politsiya sudsiz yopiq devor ortida hukm chiqarish huquqiga ega edi. Bu qonun chiqqunga qadar Gandi ularga noma bilan chiqib ularni bu qonunga qarshi chiqishga undaydi. Roulettga qarshi chiqqan Maxatma Gandiga Hindiston yoshlari jon deb qo'shilishdi. Ollohobodning yosh advokatlaridan biri Kembrij Universitetini tugatib qaytgan Djavoharlal Neru Gandining metodiga to'liq qo'shiladi. Roulett qonuni kuchga kirdi. Maxatmaning chaqiriqlari xalq tomonidan qabul qilindi va 1919-yil 6-aprel fuqarolarning tobe bo'lmaslik kompaniyasi kuni deb e'lon qiladi. Shu kundan boshlab Hindiston xalqi kuchga to'ladi, omma birlashadi. Birinchi bor ishchilar, kreston ommaviy siyosiy demonstratsiyalarga chiqishadi. Dehli, Ahmadobod, Amritsar, Laxor, Bombeyda qonli to'qnashuvlar boshlanib ketadi. Panjobda harbiy holat e'lon qilinadi. Bombey ko'chalari odamlar bilan to'lib ketgan bo'lib, ular "Bande motaram" ya'ni "Salom senga ona Vatan" – deb qichqirishardi[48].

1919-yil 13-aprelda mahalliy taqvimga ko'ra yangi yil kuni markaziy maydonda 20 mingga yaqin aholi to'planib, Roulett qonunini bekor qilish haqida demonstratsiyaga chiqdi. Qurolsizlangan aholiga qarshi hukumat ogohlantirmasdan o'q ota boshlaydi (379 kishi qirib tashlandi). Maxatma Gandi Panjobga borishga vitse-qiroldan ijozat olib Matilal, Djavoharlal Nerular bilan birga Amritsarga yetib keladi[49].

Moxandas Gandi vatani Hindistonga qaytgach bu yerdagi hind-musulmon munosabatlarini yaxshilashga e'tibor qaratdi. O'zi aytganidek:»hali Janubiy Afrikadayoq menga shu narsa mutlaqo ravshan ediki, musulmonlar bilan hindular o'rtasida chinakkam do'stlik yo'q. Men hech qachon ularning birlashishi yo'lidagi to'siqni bartaraf etish imkoniyatini boy bermaganman. Biroq yaltoqlanib yoki o'z qadrimni yerga urish hisobiga biron bir odamni o'zimga qaratish odati menga

[47] http://www.krugosvet.
[48] Новая история Индии. М.1961. С.655.
[49] Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007. С.77.

butunlay yot narsa edi. Janubiy Afrikadagi ishimdan shu narsaga imonim komil bo'ldiki, aynan hindu-musulmon birligi masalasida mening ahimsam eng jiddiy sinovga duch keladi va o'sha vaqtda ushbu masala ahimsa sohasidagi mening izlanishlarim uchun keng maydonga ochib beradi. Men bunga hozir ham ishonib turibman. Xudo meni sinovlarga duchor etajagini bir umr his qilib kelganman.[50]

Janubiy Afrikadan ana shunday ishonchu e'tiqodlar bilan qaytib kelib, men musulmonlarning rahnamolari aka-uka Alilar bilan yaqinlashishga harakat qildim. Men ularni bor-yo'g'i ikki martagina ko'rganman, ammo ular haqida juda ko'p eshitganman. Hamma ularning ishlari va ular ko'rsatgan matonati haqida yaxshi gaplarni aytardi. Oramizda uzviy do'stona aloqalar o'rnatilishidaqn oldiqroq afsuski ular qamoqqa tushib qolishgandi. Aka-uka Alilar hibsga olingandan keyin musulmon do'stlarim meni Kalkuttadagi musulmonlarning sessiyasiga taklif etishdi. Mendan so'zga chiqishimni iltimos qilishdi va aka-uka Alilarni ozod etish uchun musulmonlar bor kuchlarini ayamasliklari kerakligi to'g'risida ikki og'iz gapirdim bir muncha vaqtdan keyin o'sha do'stlar meni Aligarhdan musulmonlar kollejiga olib borishdi, u yerda yoshlarga Vatanga xizmat qilish ishida "faqir"lar bo'lishga chaqirdim.

So'ng aka-uka Alilarni ozod qilish bo'yicha hukumat bilan yozishmalarga kirishib ketdim shu munosabat bilan ularning qarashlarini va xalifalik haqidagi masalada faoliyatini o'rgandim va musulmon do'stlar bilan bir nechta suhbat o'tkazdim. Agar aka-uka Alilarni ozod etish ishida va xalifalik masalasini hal etishda qo'limdan kelgancha yordamko'rsata olsamgina musulmonlarning chin do'sti bo'lishimni bilardim. Men bu ishimning haqqoniyligi to'g'risida hukm chiqara olmaymanu, ammo musulmonlarning talablarida hech qanday axloqsizlik yo'q edi. Diniy qarashlarda biz boshqa-boshqamiz. Har birimizga o'z dinimiz eng oily bo'lib ko'rinadi. Agarda, hamma bir xildagi diniy e'tiqod yo'lini tutganida, dunyoda faqat bittagina din bo'lar edi. Vaqti bilan shu narsaga amin bo'ldimki, xalifali to'g'risidagi masalada musulmonlarning talablari axloqiy negizlarga qarsi boruvchi gunoh ish emas. Hatto Britaniya bosh vaziri uni adolatli deb etirof etadi.

[50] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.369.

Xalifalik haqidagi masalaga mening munosabatimni do’stlar ko’pincha tanqid qilib chiqar edilar. Biroq shunga qaramasdan na o’z nuqtai-nazarimni qayta ko’rib chiqishga van a musulmonlar bilan hamkorligimdan afsuslanishimga zarurat yo’q edi.

Hayotimdagi voqealar shu tariqa rivojlanib borar ediki, men turli dindagi va turli ijtimoiy holdagi odamlarga duch kelar edim. Qarindosh urug'larim va begonalarga, vatandoshlarim va ajnabiylarga, oqtanlilar va ranglilarga, hindularga va boshqa dindagi hindlarga, ular xoh musulmon, xoh pars, xoh nasroniy, xoh yahudiy bo'lsin, barchasiga har doim birdek munosabatda bo'lardim. Komil ishonch bilan ayta olamanki, yuragim ularni turlicha idrok etishga qodir emas edi».

1919-yilning noyabrida Dehlida Hindiston musulmonlarining halifalik harakati konferensiyasi bo'ladi. Hindiston tarixida birinchi marta hindu diniga mansub Moxandas Gandi ushbu harakatning raisi qilib saylanadi. Bu bejiz emas albatta. U hind-musulmon birligining ashaddiy tarafdori bo'lganligidan va bu boradagi ishlari natijasida shunga erishdi. Uning uchun musulmonlar masalasi butun xalq birligining, hatto Hindiston mustaqilligiga erishishning kaliti edi[51].

1919-yilning oxirida HMK ning navbatdagi sessiyasi Amritsarda bo'lib o'tadi. Kongressning ko'pchilik rahbarlari to'g'ri qamoqdan chiqib kelgan. Chunki sal oldinroq Angliya qiroli Hindiston boshqaruviga oid yangi qonunni qabul qilinishi munosabati bilan amnistiya e'lon qilgan edi.[52] Ular orasida Gandining izdoshlari aka-uka Alilar, Tilak, Motilal va Djavoharlal Neru, E.Bezand kabi mamlakat siyosatchilari bor edi. Maxatma Gandi shu vaqt oralig’ida « Yangi Hindiston » gazetasini Ahmadoboddan nashrga chiqarishga do’stlarining yordamida amalga oshiradi.

Moxandas Gandining hayotida katta o'rin tutgan bu sessiya haqida shunday yozib qoldirgan:»Shungacha Kongressning yillik majlislarida mening ishtirokim hindiy tilini targ'ib qilish bilan chegaralanardi, buning oqibati o'laroq men hindiy tilida nutq so'zlar, unda hindlarning boshqa mamlakatlardagi ahvoli bilan

[51] Винод Бхатия Джавохарлал Неру и становление индийского-советских отношений 1917-1947. М.1989. С.66.
[52] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.36.

tanishtirardim. Bu yil biron-bir narsa bilan mashg'ul bo'lishimga to'g'ri kelar deb o'ylamagandim. Biroq ilgari ham ko'p martalab bo'lgani kabi zimmamga kutilmaganda mas'ul ish tushib qoldi.

Kongressga Panjobdagi jinoyatlar to'g'rida hisobot tuzish uchun mas'ul bo'lganim sababli bu masala bo'yicha yana qilinishi keragi bo'lgan narsaga e'tiborni tortishim zarurligini angladim. Hukumat bilan muzokaralar o'tkazmasa bo'lmasdi. Navbatda yana islom davlati to'g'risidagi masala turardi.

Xuddi shu pallada matbuotda qirolning yangi islohotlar to'g'risidagi bayonoti e'lon qilindi. Hatto menga u unchalik qoniqarli emasday bo'lib ko'rindi: ko'pchilik qismi esa mutlaqo qoniqarsiz edi. Ammo garchi kamchiliklardan holi bo'lmasada, islohotlar maqbul bo'lib ko'ringan edi. Men qirol e'lon qilgan islohotlar to'g'risidagi munozalarda ishtirok etish shartligini angladim. Shu bois men rezolyutsiyada islohotlarni rad etish emas, balki qabul qilish uchun fikr bildirdim. Ammo bu barcha birdek hurmat qiladigan rahnamolar bilan boshqa-boshqa fikrlashim edi. Shuning uchun Kongressdan ketishga harakat qildim. Ammo ovozlarni sanash sharti bilan yana qoldim va rezolyutsiyam qabul qilindi.

Amritsardagi Kongress majlislarida ishtirok etganimni men Kongressda o'z siyosiy faoliyatimning chinakkamboshlanishi deb qarayman. Oldingi sessiyalardagi ishtirokim Kongressga sodiqligimni har yili takrorlanib turuvchi izhoridan boshqa narsa emasdi. Amritsardagi tajribadan angladimki, Kongressga foydali bo'lish munkin bo'lgan ayrim narsalarga nisbatan ma'lum qobiliyatim borligini tushundim[53].

Kongress mening boshqa qobiliyatim – turli-tuman tuzishi qobiliyatidan foydalanishi mumkin edi. Kongress rahnamolari fikrlarini qisqa va lo'nda bayon etish qobiliyatimni payqab qolishdi. Men bunga uzoq davom etgan amaliyotim natijasida erishganman. O'shandagi mavjud Kongress nizomi To'kxam merosi edi. U nizomning bir qancha moddalarini qoralagan bo'lib ular Kongress ishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan edi. Biroq endi ularning barchalari bu moddalar Kongressning tobora kengayib borayotgan faoliyatiga muvofiq kelmasligini

[53] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.402.

tushunardilar. Bu masala yildan-yilga ko'ndalanga bo'laverardi. Kongressning sessiyalar oralig'ida faoliyat ko'rsatgan va yil davomida yuzaga keluvchi masalalarini ko'rib chiqa oladigan apparati ayni vaqtda deyarli yo'q edi. Mavjud nizom uchta kotib bo'lishini nazarda tutardi, ammo haqiqatda faqat bittasi ishlardi, u ham diniy emas. Qanday u bir o'zi Kongressning barcha ishlarini olib borishi, kelajak haqida o'ylashi va o'tmishda Kongress o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni joriy yilda bajara olishi mumkin? Bu yil nizom xususidagi masala yanada jiddiyroq ko'ndalang bo'lishini hamma tushunardi. Bundan tashqari, ijtimoiy masalalarni hal etish uchun Kongress o'zi haddan tashqari yirik organ edi. Na Kongress delegatlari umumiy miqdori uchun va na har bir provinsiyadan keladigan delegatlar miqdori uchun hech qanaqa cheklov yo'q edi. Bu tartibsizliklarga chek qo'yish zarurligini hamma his etib turardi. Men birgina shart bilan Kongress nizomini qoralab borish vazifasini o'zimga oldim. Aholi orasida ikki kishi - Lokmaniya va Deshbandhu eng katta obro'ga ega ekanligini ko'rib turardim va shu bois ularni Kongressning yangi nizomini ishlab chiqish bo'yicha xalq vakillari sifatida hay'atga kirishlarini talab qildi. Biroq ishda shaxsan ishtirok etish uchun har ikkalasining ham vaqti bo'lmasligi aniq bo'lganligi sababli men ular o'zlarining o'rinlariga to'liq ishonchlarini qozongan ikki vakillarini yuborishlarini talab etdim. Shu tariqa, hay'at uch odamdan iborat bo'lishi mumkin. Hay'at majlisga bir marta ham yig'ilmadi, ammo biz yozma ravishda kengashish imkoniyatiga ega bo'ldik va kelishilgan ma'ruzani taqdim etdik.

Nizomni ishlab chiqish masuliyatini o'z zimmamga olib, men Kongress siyosiy faoliyatining chinakkam ishtirokchisiga aylandim deb bilardim».

Haqiqtdan ham Moxandasning bu xizmatlari uchun keyingi hayotida katta rol o'ynadi. 1920-yildan boshlab Moxandas Gandi HMKga ta'siri kuchayib bordi. Unig atrofiga Hindiston mustaqilligining eng sodiq kurashchilari to'plana bordi. Ularning ichida o'z davrining yetuk insoni Abdulkarim Ozod bor edi. U Gandi bilan uchrashmasdan oldin va Kongressga kirguncha bengal terrorchilari bilan birlashgan holda mustamlakachilarga qarshi kurashda har qanday usullardan foydalanishga tayyor bo'lgan. «Alhilol»(Yarim oy) gazitasini ta'sis qilgan. 1912-

yildan aka-uka Alilar bilan halifalik harakatini boshqargan endilikda u Moxandas Gandining mustamlakachilarga qarshi kuch ishlatmasdan kurashish ta'limotini qabul qilib uning ishonchli safdoshiga aylangan edi. Hindistondagi halifalik harakati o'ziga xos xususiytga ega edi. Gap shundaki «halif» so'zi hind tilida «qarshi» so'ziga to'g'ri keladi. Hindlar uchun halifalik harakati inglizlarga qarshi qaratilgan harakat edi. Uning rahnamolari vitse-qirol huzuriga harakat talabini yetkazadigan delegatsiyaga Moxandas Gandini rahbar qilib saylashadi.[54]

Bu Moxandas Gandi uchun vitse-qirol bilan birinchi bor uchrashishi emasdi. Yevropada urush ketayotganda vitse-qirol hind rahnamolarini Dehliga harbiy anjumanga chaqirganda Moxandas Gandini ham taklif qilgandi. U anjumanga ishtirok etib, hindistoniy tilida bir jumla so'z aytgan va olqishlarga ko'milgan edi. Chunki bunaqa majlislarda birinchi marta hind tilida gapirishi edi. Moxandas Gandi o'z fikri mulohazalarini garchi vitse-qirol va ingliz hukumatini tanqid qilgan bo'lsada, yozib vitse-qirolga topshirgan edi. Vitse-qirolga bildirilgan takliflar u bilan bo'lgan suhbatlar foyda beradi.

1920-yil 18-mayda Ozod, Tilak va Maxatma Gandi Dehliga uchrashadi va xalifotning keyingi ishlarini rejalashtirib olishadi. Shu yilning 30-iiyun kuni Ollohoboddagi musulmonlar Kongressida Gandi, Ozod,Shavkat Alilar Angliya hukumatiga ochiq maktub yo’llab ular bilan hamkorlikni to’xtatishlarini bildirishadi[55].

Moxandas Gandi 1920-yil 1-avgustda vitse-qirolga yozgan ochiq xati bilan birga Janubiy Afrikadagi urushlarda ishtiroki uchun ingliz hukumati tomonidan berilgan mukofotlarni ham qaytardi. Shu kuni Gujoratda bo'lgan mahalliy Kongressda butun mamlakatda hamkorlik qilmaslik kompaniyasini boshlashni e'lon qiladi. Hind xalqining yirik rahnamolaridan biri Lokmaniya Tilak ham uni qo'llashini bildirgan edi. Ammo u 1920-yil 31-iyulda vafot etgan. Bu masala1920-yil 9-sentabrda Kalkuttada ko’rib chiqildi.

“Kongressning Kalkuttadagi favqulodda sessiyasida qabul qilingan

[54] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984. С.85-86.
[55] Новая история Индии. М.1961. С.663.

rezolyutsiyalar Nagpurdagi uning yillik sessiyasida tasdiqlangan bo'lishi kerak edi. Xuddi Kalkuttadagidek, Nagpurda ham katta miqdorda delegat va mehmonlar to'planadi. Kongress delegatlarining soni hali cheklanmagan edi. Agar yanglishmasam, Nagpurda o'n to'rt ming odam kelgan edi. Lolajiy maktablarni boykot qilish borasidagi moddaga ozroq tuzatish kiritdi va men uni qabul qildim. Deshbandhuning talabi bilan yana bir qancha tuzatish kiritildi, shundan keyin hamkorlik qilmaslik to'g'risidagi rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi.

Kongress nizomini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi rezolyutsiya ham shu sessiyada qabul qilindi. Kongressning rahbarlik qiluvchi qo'mitasi loyihaga faqat bitta jiddiy o'zgartirish kiritdi. Mening loyihamda delegatlar miqdori bir ming besh yuzta bilan chegaralangan edi, qo'mita olti mingni taklif etdi. Menimcha, bu tavakkalchilik edi va so'ngi yillar tajribasi buni tasdiqladi. Delegatlar soni qancha ko'p bo'lsa, ish shuncha yaxshi olib borilishiga imkon tug'uladi yoki demokratiya tamoyillariga rioya qilishni yaxshiroq kafolatlaydi degan fikrni o'ta xato deb hisoblayman. Xalq manfaatlariga sodiq, haqiqatgo'y va uzoqni ko'zlagan bir ming besh yuz delegate masuliyatsiz, tasodifan saylangan olti ming odamdan ko'ra demokratiya manfaatlarini yaxshi himoya qiladi. Demokratiyani himoya qilish uchun xalq mustaqilligini, o'zini-o'zi hurmat qilishni va birlikni yurakdan his etishi, vakillar sifatida faqat yaxshi, ishonchli odamlarni saylashga undashi kerak".

Kongress, shuningdek hindular va musulmonlarning birligi haqidagi, daxlsizlikni tugatish haqidagi va khadiy haqidagi rezolyutsiyalarni ham qabul qildi. Shundan buyon hindlar – Kongress a'zolari hinduviylikni daxlsizlik illatidan tozalash majburiyatini o'z zimmalariga oldilar, khadiy yordamida esa Kongress ko'hna Hindiston bilan jonli aloqa o'rnatdi. Islomiy davlat manfaatida hamkorlik qilmaslikning qabul qilinishi hindular va musulmonlar birligiga yetishish maqsadida Kongress qo'ygan katta amaliy qadam bo'lgani o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Moxandas Gandining bu taklifi Nagpur shahridagi HMK yillik sessiyasida tasdiqlanishi bilan Gandizm Kongressning rasmiy g'oyasi bo'lib qoldi.

II.2. Maxatma Gandi Hindiston milliy ozodlik kurashining boshida

Hindistonda o’z faoliyatini 1915-yilda boshlagan Maxatma Gandi dehqonlar va hunarmandlarni himoya qildi. 1915-yil 25-mayda Axmadobod shahrida Gandi “Satyagrax ashroli” ni tashkil etadi. Avvaliga u yerda 25 kishi alohida ustavga ko’ra yashadi.shu yili Podsho Rossiyasiga birinchielchi keyinchalik ozod Hindiston prezidenti Sarvepalli Radxakrishan bilan uchrashadi. Birinchi jahon urushi davrida HIndistonning ahvoli nihoyatda og’irlashdi. Turli kasalliklar epidimiyalar tarqalib 13 mln aholi qirilib ketdi. Hindiston iqtisodi inqirozga yuz tutish arafasiga kelib qoladi. Kalkutta, Bombey, Madras shaharlaridan politsiyachilar saharlab ko’chalarda to’lib ketgan murdalarni olib ketar edi. 1918-yil birinchi bor Gandi boshchiligida “ochlik” kompaniyasi boshlandi

1919-1920-yillarda yirik kongresslarining qarshiligiga qaramay o’zining ”hamkorlik qilmaslik” dasturini qabul qilishlariga erishdi va ingliz hukumatiga qarshi birinchi tashkil etilgan umumhind kompaniyasini boshqardi.[56]

1920-yil dekabrda Nagpurda bo’lgan HMK va hind milliy-ozodlik harakatining yetakchisiga aylanadi. Unga muholifatda bo’lgan rahnamolar ham endi mustaqillikni qo’lga kiritish uchun u taklif qilgan yo’l va usullardan foydalanishga qo’shilmasdan ilojlari yo’q edi. Chunki bu vaqtga kelib Maxatma Gandi hind xalqining siyosiy rahnamosiga aylangan edi. Bunga esa uning boshqa siyosiy rahbarlardan farqli ravishda xalqqa yaqin bo’lishga, faoliyatini ularning hayoti va talablari bilan bog’lashga harakat qilgani sabab bo’ldi[57].

1921-yilda Butun Hindistonni xalq harakatlari larzaga keltirdi. Tinch namoyish o’tkazish uchun chaqiriqqa dehqon, hunarmand, ishchi va boshqa hindlar labbay deb javob bergan holda mustamlakachilarga qarshi kurasha boshladilar. Bu voqealar shu yilning oxirida o’z rivojlanish cho’qqisiga chiqadi. HMK britaniya taxt vorisi Uels shaxzodasini Hindistonga kelishi munosabati bilan bog’liq barcha tantanalarga boykot e’lon qiladi. 17-noyabrda Uels shaxzodasi

[56] Камаров Е.Н, Литман А.Д. Мировоззрение Махандаса Карамчанда Ганди. М., 1969. С.121.
[57] Мартышин О.В. Политические взгляды Джавохарлала Неру. М.1981. С.12.

Bombeyga joylashadi. HMK chaqirag'iga amal qilmay shaxzodani kutib olishga chiqqan hindlarning yuqori tabaqa vakillari ayrim to'dalar tomonidan urib qaytariladi. Ayrim boylarning uylari buzib tashlanadi. Gandi tashvishga tusha boshlaydi, kuch ishlatishga yo'l qo'ymaslikka intiladi ammo dengizdek harakatga kelgan xalqni nazorat qilish qiyinlashib borardi. Ammo Gandining Uels shaxzodasining kelishiga qarshi boykoti kutilgan natijaga erishdi va bu borada muvaffaqoyat hindular tomonida bo'ldi. Bu tashrif 1921-yilning aprelida Hindistonda vitse-qirol mansabiga o'tirgan lord Riding tomonidan o'ylab topilgan edi. Shu yili koloniyalar vaziri vazifasini Uiston Cherchil egallaydi[58].

Butun Hindiston bo'ylab davom etayotgan xalq harakatlarini bir markazdan boshqarish tobora qiyinlashib borardi. 1921-yil dekabrda HMK navbatdagi sessiyasi Ahmadobodda bo'lib o'tadi. Uning ko'pchilik a'zolari qamalgan edi. Gandi ham ozodlikda bo'lsada, tezda qamalishi haqida mish-mishlar yurardi. Kongres butun boshqaruvni uning ixtiyoriga beradi va mobodo qamalib qolsa o'rniga kimni tayinlash huquqini ham o'zida qoldiradi[59].

Namoyishchilarni qamoqqa olish keng avj oladi. 1921-yilning dekabr va 1922-yilning yanvar oylarida 30 000 kishi qamaladi. 1922-yil 4-fevralda Chauri Chaura degan joyda politsiya tinch namoyishchilarni tarqatishga urinadi. Namoyishchilar esa kaltakalrni qo'lga olib politsiyachilarni binoga yashirinishga majbur qiladilar. Shundan so'ng politsiya namoyishchilarga qarab o't ochadi. G'azablangan namoyishchilar binoni ichidagi politsiyachilari bilan birga yoqib yuboradi. Natijada Maxatma Gandi fuqarolik bo'ysunmasligini to'xtatishga majbur bo'ladi. Chunki u ommaviy namoyishlar uning boshqaruvi va nazoratidan chiqib ketishini mumkinligini anglagan edi. Chunki bu voqea birinchisi va yagonasi emasdi. Namoyishchilarni qurolli harakat qilishi bu davr uchun xos bo'lib, boshqa joylarda ham kuzatilmoqda edi.[60]

Gandining bunday qarorga kelishi ayrim Kongress rahnamolarining norozilligiga sabab bo'ldi. Ayni vaqtda uning Kongressdagi deyarli barcha yaqin

[58] Винод Бхатия Джавохарлал Неру и становление индийского-советских отношений 1917-1947. М.1989. С.72.
[59] Синха Н.К. Банерджи А.Ч. История Индии. М.1954. С.401.
[60] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.48.

safdoshlari qamoqqa edi. Turli xil muddatga Javoharlal Neru va uning otasi Matilal Neru, aka-uka Alilar, Ch.R. Das va boshqalar qamalgan edi.

Birin-ketin Gandining uch isyonkor maqolasi matbuotda e'loon qilinadi. Ularning birida britaniya imperiyasini teng huquqli va ozod davlatlar federatsiyasiga aylantirishni qattiq talab qiladi. Aks holda "yer yuzining eng jasur xalqining" butun kuchi Hindistondagi ozodlik ruhini bostirishga besamar ketishini dadil ta'kidlaydi. Ko'p o'tmay 1922-yilning 10-martida Maxatma Gandi qamoqqa olinadi. Uni kasalligi tufayli 1924-yilda ozodlikka chiqaradilar[61].

Maxatma Gandi qamalgach Kongress ikkiga bo'linib ketadi. Milliy ozodlik harakati tushkunlikka uchraydi. 1919-1922-yillardagi harakatlar izsiz ketgan edi. Satyagraxaga bo'lgan ishonch susayadi. Kongressda svarajilar guruhi paydo boladi. Ular Britaniy ahukumati bilan hamkorlik qilish kerak deb hisoblovchi va Hindiston uchun dominion huquqi yetarli eknligini ta'kidlab shu bilan qanoatlanuvchilar edi. Ikkinchi guruh esa Maxatma Gandi boshchiligidagi hamkorlik qilmaslikni davom ettirish tarafdorlari. Hukumat turli guruhlar o'tasidagi kelishmovchiliklarni keltirib chiqarish va rivojlantirish yo'lini tutdi. Bunday vaziyatni to'g'ri baholay olgan Maxatma Gandi Kongressda paydo bo'lgan yangi guruhni ayblamadi, balki ularning fikr-mulohazalarni tinglab, ularga qarshilik qilmasdan birlik uchun kurashdi. Shuningdek xalqni ruhiy tarbiyalash, Satyagraxani buyuk ishlarga qodirligini asoslash bilan shug'ullandi. Mamlakatdagi ushbu siyosiy vaziyatning og'ir damlarida u o'z ishlarini, maqsadlarini siyosatga aralashtirmasdan, bir chetda turib amalga oshirishga intildi[62].

Yigirmanchi yillarning oxirlariga kelib milliy kuchlarning kuchayishi kuzatiladi. HMKda J.Neru va S.Ch. Bos boshchiligidagi so'l kuchlar faollashadi. 1927-yilning dekabr oyida Madrasda bo'lgan HMK ning navbatdagi sessiyasida Javohirlal Neru taklif qilgan "To'liq mustaqillikni qo'lga kiritish" rezolyutsiyasi qabul qilinadi. Maxatma Gandi bu rezolyutsiyaga norozi edi. Lekin u bunga va J.Neruning boshqa fikr va dasturlariga qarshilik bildirmagan. Chunki u bunday

[61] Сарвепалли Гопал. Джавохарлал Неру "Биография". Том I 1889-1947. М.1954. С.92.
[62] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.34.

yoshlar Kongress uchun juda zarurligini bilardi va ularni o'ziga raqib deb bilmagan. Kongress birligi uchun ular bilan birga oily maqsad sari intilishga alohida ahamiyat bergan. Barcha kuchlar rahbarlari Maxatma Gandi bilan maslahatlashar, uning fikrlarini bilishni istardi u esa asosli fikrlari, tushuntirishlari bilan ularni to'g'ri yo'lga solardi. Shuninguchun ahm u o'tkir zehn, keng dunyoqarahs sohibi bo'lgan, dovyurak, talantli tashkilotchi bo'lgan J. Neruni Kongress bosh kotibi etib saylanishini qo'llab-quvvatladi[63].

Madrassdagi Kongress sessiyasidan so'ng mamlakatda ikkita siyosiy kompaniya boshlandi. J.Neruning to'liq mustaqillikni qo'lga kiritish g'oyalari targ'ib qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning otasi Matilal Neru partiyalararo konferensiya chaqirishga va unda Hindistonni bo'lajak konstitutsiyani ishlab chiqishga da'vat qildi.

Maxatma Gandi bu jarayonlarga aralashmaydi, partiyalararo konferensiyani foydasiz deb hisobladi va Hindistonga kelayotgan Saymon komissiyasiga qarshi kuch ishlatmasdan tinch namoyish o'tkazishga intildi.

Saymon komissiyasi 1928-yil 3-fevralda Bombeyga keldi. "Saymon, uyinga qayt"shiori ostida namoyishlar bo'lib o'tdi. Namoyishchilarga qanchalik qo'pol muomala qilinmasin ular kuch ishlatmadilar.

Matilal Neru tomonidan puxta tayyorlangan Hindiston konistitutsiyasiga oid ma'ruzaga Saymon komissiyasi zarracha ham e'tibor bermadi. London Hindistonga umuman yon bosmoqchi emasdi. Bu mamlakatda yana namoyishlarni avj olishiga olib keldi.

Bombeyda 1928-yilning aprelidan oktabrigacha umumiy ish tashlash bo'ldi. Maxatma Gandi chaqirig'I bilan Bardosh okrugida satyagraxa boshlanadi. Ularni qo'llab quvvatlalsh maqsadida Maxatma Gandi tashabbusi bilan Kongress 1928-yilning 17-iyun kuni "Bardosh kunlari"ni o'tkazadi. Bu satyagraxani umummilliy tus olishini o'ylab hukumat bunga sabab bo'lgan soliqlarni ko'tarish haqidagi

[63] Джавохарлал Неру. Открытие Индии. Т.II.М.1989. С.78.

qarorni bekor qiladi. Bu bilan gandizm yana Kongressning rasmiy g'oyasiga aylanadi.[64]

Maxatma Gandi Kongressdagi birlikni ham saqlab qolishga muvoffaq bo'ladi. Bu davrda so'l kuchlar ta'siri ortib borardi. Ularning maqsadlari Maxatma Gandiniki bilan mos bo'lsada Gandi ochiqchasiga ularni maqullamaganligining sababi ham birlikni saqlash maqsadidagi harakat edi. Uning taklifi bilan 1928-yil dekabrda Kalkuttaga bo'lgan HMK yillik sessiyada Matalal Neruning konstitutsiyasi haqidagi ma'ruzasi qabul qilindi. Agar 1929-yilning oxirigacha ingliz hukumati Hindistonga domlnion huquqini bermasa Kongress o'z oldiga to'liq mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib, butun hind fuqarolik bo'ysunmaslik kompaniyaisni boshlaydi. Bu Londonga qo'yilgan muliyim ultimatum edi. Sesiyada J. Neru yana Kongressning bosh kotibi etib saylanadi[65].

Hindistondagi vaziyat inglizlar uchun kundan-kunga yomonlashib borardi. Hukumat nimalardir qilishga majbur bo'lmoqda edi, chunki repressiyalar, qamoqlar bilan harakatga ta'sir ko'rsatish mumkin emasligini ular angladi.

Maxatma Gandi Angliyaga taklif etiladi, ammo u bunday og'ir vaziyatda mamlakatni tark etishni rad etadi. Kalkuttada berilgan ultimatumning muddati oxirlab borardi. Vitse-qirol lord Irvin Gandi bilan yaqinlashishga harakat qiladi. 1929-yil 31-oktabrda ingliz hukumati Londonda "Aylana stol konferensiyasini" o'tkazishga qaror qilganini ma'lum qiladi. Ammo bular kutilgan natijani bermaydi. Maxatma Gandi endi faqat kurash yo'li bilan maqsadga erishish mumkinligini chuqur his qiladi. Hindistondagi vaziyat shunga olib kelayotgan edi va butun xalq bu kurashning hamda Kongressning oldiga Maxatma Gandi turishini istashar edi. Lekin Lakxnavdagi Kongressning butun hind qo'mitasi yig'ilishida Maxatma Gandi kutilmaganda HMK raisligidan bosh tortib, unga J.Neruni taklif qiladi. Bu fikrida qat'iy turib "uning rahbarligida millat xavfsizlikdabo'ladi" dedi.[66]

1929-yilning dekabrida bo'lgan HMK ning navbatdagi sessiyasida J.Neru to'liq mustaqilikni qo'lga kiritish uchun Kongress kuch ishlatmaslik metodlarini

[64] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984. С.162.
[65] Мартышин О.В. Политические взгляды Джавохарлала Неру. М.1981. С.24.
[66] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.73.

tanlaganini e’lon qiladi va 26-yanvarda “Mustaqillik kuni” ni nishonlashga chaqiradi. Shu kuni butun mamalakat bo’ylab miying o’tkazish, unda Hindiston ozodligi uchun oxirigacha kurashishga qasamyod qilishga chorlaydi. Butun mamalakatda shu kuni mitinglar bo’lib o’tadi[67].

Kutilmaganda 1930-yilning 30-yanvarida Maxatma Gandi vitse-qirolga 11 banddan iborat talabnoma yozi, agar u bajarilsa satyagraxani to’xtatish tayyorgarligini bayon qiladi. Talablar rad etilgach 11-mayda umummilliy fuqarolik bo’ysunmasligi “tuz satyagraxasi” dan boshlanadi. Chunki tuz ishlab chiqarishdagi ingliz monopoliyasi butun mamalakat aholisini, ayniqsa, kambag’alarni qiyin ahvolga solgan edi.

Maxatma Gandi Dandiga 79 ta izdoshi bilan borib, ingliz monopoliyasiga qarshilik sifatida daryo suvidan tuz qaynatib olish bilan shug’ullandi. Shuningdek ingliz hukumatiga kuch ishlatmasdan qarshilik ko’rsatishni targ’ib qildi. Maxatma Gandining Dandiga borishi va tuz monopoliyasiga qarshilik sifatida xalq tomonidanqonunga bo’ysunmaslik, uni buzish to’liq mustaqillik uchun yirik ommaviy harakat sifatida qabul qilindi. Bunday namoyishchilar butun mamlakatda tarqaldi. 23-aprelda Peshovarda inqilobiy harakat cho’qqisiga chiqdi. Namoyishchilar to’pga tutildi ikkita vzvod o’t ochishdan bosh tortib qurollarini topshirishdi.

1930-yilning aprel-may oylarida oltmish ming kongresschi qamaldi. Ular orasida ota-bola Nerular ham bor edi. Maxatma Gandi 5-may kuni qamoqqa olindi. Bu katta xalq noroziligini keltirib chiqardi. Butun hind Xartali – umumiy ish tashlashlar boshlandi. Dastlab Bombey to’qimachilari ish tashladilar, ularga temiryo’lchilar qo’shildi. Savdogarlar ham olti kunlik ish tashlash uyushtirdilar. Politsiyachilar bu namoyishlarni bir chetdan kuzatishga majbur bo’ldi. Hukumat mansabidagi hindularning iste’foga chiqishi boshlandi[68].

Bu vaqtda Londonda “Aylana stol konferensiyasi”ning birinchi raundi bo’lib otdi. Vitse-qirol Irvin 1931-yil 25-yanvarda Maxatma Gandini ozod qilish haqida

[67] Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007. С.77.
[68] Мартышин О.В. Политические взгляды Джавохарлала Неру. М.1981. С.19.

farmon chiqardi. U bilan birga HMK ishchi qo'mitasining 30 nafar a'zosi ozod qilindi. Vaziyatni o'nglash maqsadida vitse-qirol 17-fevraldan boshlab Maxatma Gandi bilan muzokaralar olib bordi va nihoyat 1931-yilning 4-martida ularning rasman kelishuvi imzolandi. U tarixda "Gandi-Irvin pakti" deb nom qozongan. Unda o'zini-o'zi boshqarish haqida biror-bir so'z bo'lmasada, u ikkinchi satyagraxaning finali edi. Undan hech narsaga erishilmadi, ammo Maxatma Gandi vaziyatni o'nglash uchun uni imzolagan edi[69]

1931-yil aprelda yangi vitse-qirol lord Uillingdan Hindistonga kelgach Maxatma Gandini Londonga "Aylana stol konferensiyasi"ning navbatdagi yig'ilishiga jo'natadi. 1931-yilning avgustida u Londonga keladi va Sent-Jeymsda ochilgan "Aylana stol konferensiyasi"da ishtirok etadi. Konferensiya 7-oktabrda tugaydi.

Maxatma Gandi Hindistonga qaytishda Fransiya, Shveytsariya, Italiyada bo'ladi. Bu yerda fashizm yoyilayotganini urush kelib chiqishini sezadi va Hindistonning kuch ishlatmaslik yo'li davlatlarga urushdan va uning oqibatlaridan qutilishga foydali bo'lishini aytgan. Maxatma Gandi Romen Rollan, Mussolini bilan uchrashadi va 1931-yilning 28-dekabrida Bombeyga keladi.

Yangi vitse-qirol ommaviy namoyishlarni oldini olish maqsadida Maxatma Gandini 1932-yil 4-yanvarda qamoqqa olishga buyruq beradi. Punadagi qamoqxonada uni ko'rish uchun Bombey hukumati ichki ishlar vaziri tomas keladi va Hindistonning yangi konstitutsiyasi qisman bo'lsada qabul qilinishini so'raydi. Maxatma Gandi bunga rad javobini beradi.

Ingliz hukumati mustaqillik uchun bo'layotgan umummilliy harakatni yo'q qilish maqsadida qisqa vaqtda to'qson ming kishini qamaydi. Maxatma Gandi qamoqda ham norozilik sifatida ochlik e'lon qiladi. Mamlakatdagi satyagraxani susayishi munosabati bilan 1933-yilning 9-mayida yana ochlik e'lon qiladi. 1-avgustda ozod qilinadi va Punadan chiqmasligi kerak edi. Ammo u bunga

[69] Новейщая история Индии. М.1959. С.239.

bo’ysunmay 1933-yilning oxirgi oylari va 1934-yilning boshlarida mamlakat bo’ylab yurdi va satyagraxani targ’ib qildi[70].

1934-yilning 14-sentabrida Maxatma Gandi Kongressdan ketishini e’lon qiladi. Bundan ko’zlagan maqsadi o’z dasturini amalgam oshirish bilan shug’ullanishi uchun zarur bo’lgan sharoitni yaratish, Kongressdagi boshqalarga halaqit qilmaslik edi. Ayrimlar ta’kidlaganidek bu uning “siyosatdan ketishi” emas edi, albatta. Unga har kuni maslahatga kelib turishgan. Bu davrdagi uning barcha chiqishlari qishloq hunarmandchilik sanoatini rivojlantirishga, daxlsizlar holatiga, gigenaga, sigirlarning himoyasiga va shunga o’xshash mavzularga bag’ishlangan edi.

Maxatma Gandi Kongressdagi barcha kuchlarni Javoharlar Neruga bo’ysunishga targ’ib qilardi. Chunki u Javoharlar Neruda yoshlarning vatanparvarligini, fidoiyligini “tegishli yo’nalishga” boshqarish uchun kerak bo’lgan qurolni ko’ra olgan va buni Kongress rahbariyatiga uqtirishga intilgan.

Shunday qilib u Kongressdan ketib, bir chetdan turib Kongressning barcha kuchlarini J. Neru boshchiligida birlashtirishga intildi. Gandining Kongressdan ketish maqsadi ham shu edi. Bu strategiyasi bilan Maxatma Gandi Kongressni mustaqillik uchun kurashdagi yagona frontga aylantirdi[71].

Kongress va ingliz hukumati o’rtasidagi yangi konstitutsiyaga oid kelishmovchiliklar Kongress foydasiga hal bo’ldi. Ingliz hukumati Kongressdagi birlikka duch kelgach, uning talablarini bajarmaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishini anglagach o’zining oldingi pozitsiyasidan voz kechdi. Ingliz hukumati nomidan Hindistonishlari bo’yicha vazir lord Zetlen HMK nomidan Maxatma Gandi ishtirok etgan ommaviy debatlardan so’ng tomonlar kelishuvga keldi.bu kelishuv milliy nuqtai-nazardan qoniqarli bo’lmasa ham Kongressga vazirliklar tuzish imkonini berdi. Bu qaror bilan bog’liq holda Maxatma Gandi o’z faoliyat uslubini o’zgartirdi. U Kongressdan tashqarida bo’lgan holda turli Kongress vazirliklarini boshqarishga katta rol o’ynadi. Har hafta “Xorinsan” gazetasida

[70] Новейщая история Индии. М.1959. С.311.
[71] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С. 100

maqolalar berib, maslahat sifatida vazirliklarga, ularning xodimlariga qanday ish tutishni aytib turdi.[72]

Kongressning ingliz hukumati ustidan nisbatan g'alaba qozonishi o'ng va so'l kuchlar kelishmovchiligini kuchaytirdi. 1935-yilda Hindistonni boshqarish akti qabul qilinib, unga muvofiq mamlakatda juda chegaralangan provincial avtonomiya berilgan edi.shuningdek u provinsiyalarda hukumatni shakllantirishga imkon berdi. Bu so'l kuchlarning noroziligini keltirib chiqardi. Bu norozilik ayniqsa 1937-yilda Maxatma Gandi provinsial saylovlarda ishtirok etganda yanada kuchaydi va Kongressni o'ng va so'l kuchlarini aniq bo'linishiga olib keldi. Maxatma Gandi birlikni saqlash maqsadida so'l kuchlarni qo'llab-quvvatladi[73].

Ikkinchi jahon urushi Angliya koloniyalariga yon bosadi degan umid uyg'otdi. Ammo bunday bo'lmadi. Urush davrida Angliyaga yordam berish masalasida Maxatma Gandi va Kongress ishchi qo'mitasi orasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Voqealar rivoji natijasida ishchi qo'mita xalqqa murojaat etib Maxatma Gandi ko'rsatmalariga amal qilishga chaqirdi. 1942-yil 14-iyulda HMK ishchi qo'mitasining Vard shahridagi majlisida Maxatma Gandi taklif etgan "Hindistondan yo'qol" rezalyutsiyasi qabul qilinadi. Unga ko'ra, Hindiston mustaqilligini zudlik bilan tan olish talab etilgan edi[74]. Bunga javoban HMK ta'qiqlanib rahnamolari qamaldi. Ular qatori Maxatma Gandi ham 9-avgustda qamoqqa olinadi. U bilan birga qamalgan xotini Kasturbay 1944-yil 22- fevralda vafot etadi. O'zi esa sog'ligi yomonlashganiuchun 6-mayda ozod qilinadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Cherchil o'rniga kelgan leyboristlar hukumati Hindistonga suvirenitet berish vaqti keldi deb hisobladi. Ammo ular musulmonlarni hindularga qarshi gij-gijlashni qo'llab-quvvatladi. HMK esa bunga qarshilik ko'rsata olmadi. Natijada Hindiston o'rnida ikkita davlat paydo bo'ldi. Maxatma Gandi hayotining oxirigacha bu xato fikr deb unga qarshilik ko'satdi. U Hindistonva Pokiston kelajagi inglizlarsiz hal etilishi kerak deb turdi. Lekin o'zining tarafdorlari bunga qo'shilmasligini bilardi. U HMK ga rahnamo

[72] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.105.
[73] Синха Н.К. Банерджи А.Ч. История Индии. М.1954. С.405.
[74] Мартышин О.В. Политические взгляды Джавохарлала Неру. М.1981. С.28.

bo’lgandan buyon birinchi marta siyosiy kurashdan chetlasha boshladi. Muhim masalalar uning ishtirokisiz hal etila boshlandi. Safdoshlari ko’proq hokimiyatni o’ylash bilan band edi. Maxatma Gandi ramziy rahnamoga aylanib, hayotining eng og’ir kunlarini kechirmoqda edi[75].

Maxatma Gandi hindulardagi daxlsizlikni yo’q qilishga katta xissa qo’shgan.1946-yilda ish boshlagan Hindiston ta’sis majlisi 1949-yilning 26-noyabrida Hindiston Konstitutsiyasini qabul qilinishi bilan o’z ishini yakunladi. Daxlsizlikni bekor qilinishi haqidagi qonun qabul qilinganda butun zalni “Yashasin Gandi” hayqiriqlari to’ldirib yubordi. Maxatma Gandi bu majlisda ishtirok etmagan, lekin uning g’yalari Hindistonning asosiy qonunida o’z ifodasini topgan. U 1931-yilda aytgan edi: “Men Hindistonni har qanday qullikdan ozod qiluvchi konstitutsiya uchun kurashaman. Men shunday Hindiston uchun kurashamanki, unda eng nochor kishilar ham o’zlarining o’rni va ovozi borligini his qiladilar. Unda yuqori va quyi tabaqa kishilaribo’lmaydi. Bunday Hindistonda daxlsizlikka ham o’rin qolmaydi”.

Maxatma Gandi har qanday ta’qib va azoblarga chidagan holda, ularga qaramay o’z usulini doimiy qo’llashi natijasida Hindistonni 1947-yilda mustaqillikka olib keldi. Biroq u Hindiston siyosiy ozodligi oxirgi maqsad emas, balki zarur vosita deb bilgan. Agar Hindiston kuch ishlatmaslik usuli bilan mustaqillikka erishgan bo’lsa, demak bu usul Hindistondagi va jahondagi boshqa muammolarni yechishga ham qo’llanishi mumkin deb hisoblardi. Maxatma Gandi saksonga kirganiga qaramay har kuni xalq uchun ijtimoiy yomonliklarga qarshi kurashgan. Mustaqillik arafasida u xursand bo’lmadi, o’zaro nizolarni, Hindistonning yaqin kelajagini ko’rib ezildi[76].

Shunday qilib, 1947-yilning 15-avgustida Hindiston mustaqil deb e’lon qilindi. Ammo Maxatma Gandi ta’kidlaganidek hali iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy mustaqillikka erishishdek ulkan maqsadlar, vazifalar oldinda edi.

[75] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.44.
[76] Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959. С.25.

Gandizm. Gandi va undan keyin

1947 yil 15 avgust kuni Hindiston va Pokiston davlatlari o'z mustaqilligini e'lon qilib Hindiston rasman ikki davlatga ajratilganligini tasdiqlashdi. Har ikkala davlatda millliy nizolar avj oldi. Maxatma Gandi hind-musulmon kelishmovchiliklarini yo'q qilishga intildi. Ammo unga hech kim quloq solmasdi. Hammaning o'y-hayoli, fikru-zikri hokimiyat bo'lib qolgandi. Milliy nizolarni to'xtatishga intilib 1948 yilda Maxatma Gandi yana ochlik e'lon qiladi. "O'lim men uchun ajoyib qutilish yo'li bo'ladi. Hindistonni o'zini-o'zi yo'q qilishiga guvoh bo'lgandan ko'ra o'lgan yaxshi" - degan edi. Shundan so'ng milliy guruhlar rahbarlari ma'lum kelishuvga keladi. Ammo mamlakatdagi ahvol yaxshi emasdi.

1948 yilning 30 yanvarida ibodatxonaga ketayotganida Maxatma Gandi hind fanati, shovunistik "Rashtriya svayam sevak sangx" tashkiloti vakili yomonidan o'ldiriladi. Shundan ikki hafta o'tib "Xarijan" gazetasi uning "oxirgi orzusi va vasiyati"ni e'lon qildi. Unda "Kongress hayotini yashab boldi, uni xalqqa yordam qilish assotsiatsiyasiga aylantirish kerak" deyilgan edi[77].

Maxatma Gandi hindulardagi daxlsizlikni yo'q qilishga katta xissa qo'shgan.1946-yilda ish boshlagan Hindiston ta'sis majlisi 1949-yilning 26-noyabrida Hindiston Konstitutsiyasini qabul qilinishi bilan o'z ishini yakunladi. Daxlsizlikni bekor qilinishi haqidagi qonun qabul qilinganda butun zalni "Yashasin Gandi" hayqiriqlari to'ldirib yubordi. Maxatma Gandi bu majlisda ishtirok etmagan, lekin uning g'yalari Hindistonning asosiy qonunida o'z ifodasini topgan. U 1931-yilda aytgan edi: "Men Hindistonni har qanday qullikdan ozod qiluvchi konstitutsiya uchun kurashaman. Men shunday Hindiston uchun kurashamanki, unda eng nochor kishilar ham o'zlarining o'rni va ovozi borligini his qiladilar. Unda yuqori va quyi tabaqa kishilaribo'lmaydi. Bunday Hindistonda daxlsizlikka ham o'rin qolmaydi"[78].

[77] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.45.
[78] Азии и Африки сегодня. 1999 г. №12.

Maxatma Gandining fojiali o'limidan so'ng u ishlab chiqqan Gandizmning taqdiri qanday kechdi? Gandining o'quvchilari va izdoshlari u ishlab chiqqan Gandizmning qiymatini va metodlarini yaxshi bilganlar . ulardan biri Maxatma Gandining haqiqiy izdoshi, o'rinbosari Vinoba Bxave edi.

Maxatma Gandi hayotligida Vinoba Bxave mamlakatda boshqa shaxslarga qaraganda unchalik mashhur bo'lmagan. Uning ismi faqat bir marotaba butun Hindistonga Gandining fikrdoshi sifatida yoyilgandi. Bu hodisa 1940 yilda Maxatma Gandi tomonidan inglizlarga qarshi protest bildirganda ro'y bergan. Ana shunda insonlar uni Gandining amaldagi izdoshi ekanligini bildilar. Vinoba Bxave butun umri davomida Maxatma Gandi g'oyalari va tamoyillariga sodiq qolib, ularni targ'ib qilib, amalgam oshirishga intildi.

O'tgan o'n yil davomida uning ismi butun mamlakatga yoyildi. 1951 yildagi Hindistonning yer mustaqilligi uchun boshlangan bxudan harakati Gandi tamoyillaridan bu muammoni hal etishda foydalandi. Gandistalar bu harakatni qo'llab, yer muammosini hal etishda o'zgacha og'irroq bo'lgan yo'lni tanladilar. Ular mulkdorlarni yerlarini olib dehqonlarga bo'lib berganlar. Bunday qilinishidan maqsad dehqonlarning harbiy qo'zg'alishini oldini olish edi.[79]

Vinoba Bxave Gandining firkdoshlaridan o'nta erkak va o'nta ayol bilan birgalikda "jan shakti" xalq hokimiyatchilikgi va'zlarini yoya boshlaydi. Uning asosiy maqsadi yer muammosi va xalq hayotidagi boshqa muammolarni hal etishda yordan berish edi. Vazirlar, professorlar va boshqa taniqli kishilar uni bu harakatning rahbarisifatida atay boshladilar.

Agar buni hisobga olmaganda Gandistlar turli masalalarda bir fikrda bo'lmaganlar. Masalan xalqaro muammolarni olsak, bu borada turli qarashlarni ko'ramiz. Ba'zi gandistlar kommunistlarga xayrixoh fikrda bo'lsa, ba'zilari antikommunistlar fikriga qo'shilib, "kommunistik tahdid"ni ta'kidlaydilar. Ichki iqtisodiy va siyosiy hayot masalalarida ham gandistlar orasida yagona fikr yo'qligini kuzatish mumkin. Shunday odamlar ham borki Gandi antikolonial harakatni boshqarganda unga qarshi chiqqanlar, keyin esa o'zlarini ning izdoshlari

[79] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.170.

deb e’lon qilganlar. Eng yomoni Gandining eski izdoshlarini Gandizm tamoyillariga amal qimaslikda ayblaganlar.

Gandistlar orasidagi bu qarama-qarshiliklar, o’zaro kurashlarning sababini bilish uchun Gandizmning mohiyatini anglab yetmoq lozim. Aytish mumkinki, Gandizmning mohiyati Maxatma Gandi ta’limotini hozirgi ijtimoiy muammolarga to’g’ri qo’llashdan iboratdir. Lekin Gandizmning yagona prinsipi bo’lganmi? Ularni hozirgi muammolarga qo’llash mumkinmi? Masalan birinchi jahon urushida inglizlar tomonidan faol ishtirok etgan Maxatma Gandi, ikkinchi jahon urushidan har qanday usul bilan qochmagan odamlarni gunohkor hisoblagan. Bunday misollarni Maxatma Gandi faoliyatida ko’plab uchratish mumkin. Bu narsa shuni ko’rsatadiki, boshqa har qanday kishi uchun bo’lganidek, Gandi uchun kuch ishlatmaslik va axloq qoidalari, usullari mutloq bo’lmagan, balki nisbiy bo’lgan. U biror bir voqea, harakat haqida qarorga kelishdan oldin chuqur o’ylagan va bir qarorga kelgach eng yaxshi natija beradigan usuldan foydalangan.

Masalan, birinchi jahon urushida hind soldatlarining Britaniya imperiyasi uchun shaxsiy qurbonlari Hindistonnnig Britaniya imperiyasidagi mavqeini mustahkamlaydi degan maqsad ko’zda tutilgandi. Shuning uchun ham Maxatma Gandi hind soldatlarining safarbarligini qo’llab-quvvatlaydi. Gap shundaki Yevropada qirg’in-barot urush davom etayotganda vitse-qirol turli rahnamolar bilan birga Maxatma Gandini ham Dehliga harbiy anjumanga chaqiradi. Kuch ishlatmaslik tarafdorining harbiy anjumanda ishtirok etishi o’shandayoq turlicha talqin qilingan[80].

Shu o’rinda Maxatma Gandining bu haqidagi o’y-fikrlarini keltirishni lozim topdik: “Anjumanda so’zlaganim bitta-yu bitta jumla men uchun katta ahamiyatga ega edi. Men anjumanning o’zini ham qo’llab-quvvatlagan rezolyutsiyani ham unitolmas edim. Bu vaqtda yana bir ish qilishim – vitse qirolga xat yozishim kerak edi. Bu men uchun hukumat va xalq manfaatlari uchun anjumanda qanday va nima uchun ishtirok etganimni tushuntirishim va xalq hukumatdan nimani kutayotganini aniq bayon etishim kerakligini tushunib turar edim. Xatda anjumanda Lokmaniya

[80] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.371.

Tilak va aka-uka Alilardek rahnamolar yo'qligan afsus-nadomatlarimni ifoda etgandim, so'ngra xalqning eng kichik siyosiy talablarini, shuningdek urush vaqtida yuzaga kelgan vaziyat munosabati bilan musulmonlarning talablarini bayon etgan edim. Men bu xatni chop etishga ruxsat berishlarini so'radim. Vitse-qirol mamnuniyat bilan rozi bo'ldi. Mana o'sha vitse-qirolga yozgan xatim: "Sizga ma'lumki, uzoq mulohazalrdan keyin 26 apreldagi xatimda bayon etilgan sabablar bo'yicha anjuman ishida qatnasha olmasligimni Siz janobi oliylariga xabar qilishimga majbur bo'lgan edim.… Qaror qilinganidek, xatarli soatda xuddi dengiz ortidagi dominionlari kabi sheriklariga aylanishimiz kutilayotgan imperiyaga chin yurakdan so'zsiz yordam ko'rsatishimiz kerak deb hisoblayman. Mutlaqo ravshaki, bu tayyorgarlik maqsadimizning yaqin kelajakda ro'yobga chiqishiga umidvorlikdan kelib chiqqan. Shu bois hech bo'lmaganda burchni ado etish o'z-o'zidan tegishli huquq beradi, shu nutqingizda gapirgan islohot Kongress va Liga dasturlarining asosiy umumiy tamoyillarini o'zida mujassam etadi deb ishonishga xalqning to'la haqqi bor. Aynan mana shu ishonch anjumanning ko'plab ishtirokchilariga hukumatga o'zlarining astoydil hamkorliklarini taklif etish imkonini berishga shubha qilmayman.

Bordi-yu, men vatandoshlarimni orqaga qaytishga majbur qilolganimda edi, toki urush borar ekan ularni Kongressning barcha rezolyutsiyalarini olib tashlashga va quloqlariga "o'z-o'zini boshqarish" yoki "mas'ul hukumat" deb shipshitmaslikka undagan bo'lardim. Imperiya uchun nozik bir paytda men Hindistonni o'zining harbiy xizmatga yaroqli barcha o'g'lonlariniqurbon qildirishga majbur etgan bo'lardim. Ana shunday ishi tufayli Hindiston imperiyaning eng suyukli a'zosi bo'lib qolar va irqiy tafovutlar o'tmishga chekinar edi deb ishonaman. Ammo Hindiston ziyolisi ancha sust yo'ldan borishga qaror qildi va u oilaga hech qanday ta'sir o'tkazmayapti deyish mumkin emas. Janubiy Afrikadan Hindistonga qaytib kelgach, men hind dehqonlari bilan juda mustahkam aloqa o'rnatdim va Sizni ishontirib ayta olamanki, o'z-o'zini boshqarishga erishish xohishi ularning qalbida chuqur ildiz otgan. Men Kongressning so'ngi sessiyasida bo'ldim va Britaniya Hindistoniga parlament qonuniy hukumati bilan uzil-kesil

belgilangan davrga mas’ul hukumatni butunlay taqdim etish to’g’risidagi rezolyutsiya uchun ovoz berdim. Ehtimol, bu dadil qadamdir, ammo hind xalqi eng qisqa muddatlar ichida o’z-o’zini boshqarish huquqini olishga kafolat bilangina qanoat hosil qilishiga aminman. Bilaman, Hindistonda ko’plar bu maqsadga yetishish uchun har qanday qurbon bersa arziydi deb hisoblaydilar. Ichida turib o’zlarining uzil-kesil maqomlariga ega bo’lishni istagan va umid qilgan imperiyani deb o’zlarini qurbon qilishlari kerakligini anglab yetish uchun hindlarning farosati bemalol yetadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, imperiyani xatardan saqlash ishiga o’zimizni jim va jungina baxshida qilib, biz maqsad tomon harakatimizni yanada jadallashtirgan bo’lamiz. Bu oddiy haqiqatni e’tirof qilmaslik o’z joniga qasd qilgan bilan barobardir. Biz shuni anglashimiz kerakki, imperiyani saqlab qolish ishiga xizmat qilib, o’zimizni o’z-o’zini boshqarish bilan ta’minlaymiz. Shu bois menga mutlaqo ravshanki, imperiyani himoya qilish uchun biz barcha yaroqli odamlarni berishimiz kerak. Biroq xuddi shu gapni moliyaviy yordamga nisbatan aytishga qo’rqaman. Dehqonlar bilan ochiqchasiga qilgan suhbatlarimizdan amin bo’ldimki, Hindiston imperiya xazinasiga imkonidan ko’proq narsani allaqachon berdi. Bu gapni aytar ekanman, men vatandoshlarimning ko’pchiligi fikrini ifoda etgan bo’laman. Men ishonamanki, ko’pchilik uchun anjuman hayotimizni umumiy ishga bag’ishlash yo’lida muayyan qadamni anglatadi, ammo ahvolimiz boshqacha. Hozirgi vaqtda biz imperiyaning teng huquqli a’zolari emasmiz. Biz yaxshi kelajakka umid qilishga asoslangan holda o’zimizni unga bag’ishlaymiz. Bu qanday umid ekanini aniq va sofdillik bilan aytmaslik sizga va mamlakatimizga nisbatan nosamimiylik bo’lur edi. Uni amalga oshirish uchun men hech qanaqa shart qo’ymayman, ammo umidni yo’qotish xafsala pir bo’lishini anglatishini siz tushunmog’ingiz kerak… Nihoyat, shuni xohlardimki, siz Onhazratning vazirlaridan musulmon davlatlariga nisbatan qattiq kafolat berishlarini so’rasangiz. Har bir musulmon odami bundan nechog’li chuqur manfaatdor ekanini bilishingizga aminman. Garchand men hindu bo’lmasamda, ularning ishida befarq qarab turolmayman. Ularning dardu alamlari bizning dardu alamlarimiz bo’lishi kerak. Imperiya xavfsizligi ildizi shu

davlatlarning haq-huquqlarini halol hurmat qilishga va musulmonlarning o'z muqaddas joylariga bo'lgan ixlosiga, shuningdek Hindistonning talablarini unga o'z-o'zini boshqarish huquqini taqdim etish talablarini o'z vaqtida va adolatli qondirishga borib taqaladi. Mening bu to'g'rida yozayotganim sababi shundaki, ingliz xalqini sevaman va har bir hind yuragida inglizlarganisbatan xayrixohlik tuyg'usini uyg'otishni istayman.[81]

Ko'rinadiki, Maxatma Gandi oily maqsadi yo'lida vaziyatga qarab, undan kelib chiqqan holda ish tutgan. Birinchi jahon urushidagi bunday yondashuv ikkinchi jahon urushi davriga mutlaqo to'g'ri kelmasdi. Bu vaqtda endi Britaniyaning harbiy harakatlariga halaqit berish yo'li bilan Hindiston o'z maqsadiga erishishi mumkin degan Maxatma Gandi HMK ga ingliz hukumati bilan Hindiston urushda ular tomonida ishtirok etish mumkinligi haqida muzokaralarga yo'l ochib bergan. Lekin o'zi bu muzokaralarda ishtirok etmagan. Bu ham u tanlagan strategiyaning ajralmas qismi edi.

Shuning uchun Maxatma Gandi uchun axloq va prinsiplar mutlaq bo'lgan va uning izdoshlari uning tomonidan ishlab chiqilgan usullarga to'liq rioya qilganlar deyish unchalik to'g'ri emas. Maxatma Gandi o'zining haqiqat, kuch ishlatmaslik va axloq amal qilish prinsiplarini shunchalik o'ziga xoslik bilan ko'rsatganki uni barcha o'z rahnamosi sifatida tan olgan[82].

Hindiston mustaqilligi qo'lga kiritilgach Maxatma Gandi va ko'pchilik izdoshlari orasida qarama-qarshiliklar paydo bo'ldi. Uning izdoshlari hokimiyat qo'llariga kiritilgach, ommaviy namoyishlarga hojat qolmadi, ular bizlarga xalaqit beradi deb hisoblashdi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozo etgan har qanday islohotni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish mumkin deb hisoblardi ular. Oldin aytganimizdek Maxatma Gandi hokimiyatni hindlarning qo'liga o'tishidan xursand bo'lmadi. U o'z prinsiplarini o'zgargan vaziyatga moslab yangilash zarur deb hisobladi. Shuning uchun ham uning mustaqil Hindistonga oid loyihalari paydo bo'ldi.[83]

---

[81] Ганди. М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С.377.
[82] Азии и Африки сегодня. 2007 г. №10.
[83] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.174.

Uning Kongressni nosiyosiy tashkilotga “Lok Saxayak sangx” – xalqqa yordam qilish assotsiatsiyasiga aylantirish g’oyasi ushbu partiya rahnamolari tomonidan rad etildi. Uning g’oyasi ozchilik izdoshlari tomonidan qabul qilindi. Ular “Sarva seve sangx” tashkilotiga mansub bo’lib, yangi hukumatda mansabga o’tirmaslikka ahd qildilar. O’z tashkilotini Kongressni qayta tashkil qilmoqchi bo’lgan Maxatma Gandi o’ylagan nosiyosiy tashkilotga aylantirdilar. Vinoba Bxave rahbarligidagi bu tashkilot vakillarining faoliyati natijasida – bxudan harakati kelib chiqqan. Bu harakatni vujudga kelish sharoitlari yaxshi ma’lum. Dastlab nizom-shohga qarshi chiqqan Telengan dehqonlari pomeshchiklar hokimiyatiga chek qo’ydi, keyin esa Kongress tartiblariga qarshi chiqdi. Yerni qo’lga kiritgach dehqonlar va politsiya o’rtasida qonli to’qnashuvlar bo’ldi. O’nlab dehqonlar o’ldirildi, yuzlab qamaldi va terrorning boshqa formalari ishlatilgan.

Bu voqealar Vinoba Bxaveni qanday qilsa xalq bunday azoblardan qutiladi degan savol ustida o’ylantirdi. U qabul qilgan usul to’liq Gandizga mos keladi. U kommunistlar boshchiligida qo’llanilgan yerlarni inqilobiy egallashni inkor qildi. Shuningdek qonun yo’li bilan agrar islohotlar o’tkazishni ham rad etdi. Chunki buni boshida kongresschilar turardi. Bu ikkala usul ijtimoiy masalarni hal etishda kuch ishlatishni bildirar edi. Bularga qarshi u o’z yerining malum qismidan o’z ixtiyori bilan voz kechishni joriy qildi. Jan shakta (xalq hokimiyatchiligi) g’oyasining raj shakta (davlat hokimiyati) ga nisbatan yer muammosiga qo’llanilishi bxudan harakatining mazmunini tashkil etadi.

O’z rivojiga qator bosqichlarni bosib o’tib bxudan harakati grandan harakatiga aylanadi. Bxave oldin ilgari surgan “Har kim o’z yerining oltinchi qismini yersizga bersin” chaqirig’i bilan qanoatlanmadi. Har bir mulkdorni o’z mulkidan voz kechishiga intildi. Avval yerga bo’lgan xususiy mulkni, keyin barcha xususiy mulkni yo’q qilinishi: qishloqdagi yerlarni qishloq jamoasi mulkiga aylanishi, unga birgalikda ishlov berilishi, qishloq xo’jalik mahsulotlarini adolatli taqsimlanishi va boshqalar – gramdanning asosiy xususiyatlaridir.

Bxave va uning izdoshlarining takidlashicha gramdan harakatiga ko’ra ular Hindistonni oldida turgan ijtimoiy muammolarni to’g’ri hal qilish yo’lini

topganlar. Ammo bu bilan Kongress rahnamolari ham kommunistik partiya, xalq sotsialistik partiyasi ham rozi emas edi. Bu harakat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hosil qilishda qo'l kelishi mumkin, lekin uni davlat hokimiyati yordamisiz amalga oshirish mumkin emas. Bxave va gramdan harakati erishgan barcha yutuqlarga qaramay yirik pomeshchiklar yerga nisbatan xususiy mulkdan voz kechishga unchalik shoshilmagan. Shuning uchun Bxave tomonidan gramdan harakatini muhokama qilish uchun chaqirilgan Misor konferensiyasida turli siyosiy partiya rahnamolari bu harakatni rad etmasada hukumatning yer islohoti bilan bog'liq tadbirlarini to'xtatmaydi. Konferensiyada hukumat tadbirlari va Bxave rahbarligidagi ko'ngillilar harkati bir-birini to'ldiradi deb ta'kidlandi.[84]

Aytish mumkinki Bxave Gandi qo'llagan prinsiplarni qo'llagan. Ammo takidlash lozimki, Gandi izdoshlarining ko'pchiligi Bxave fikrlariga qo'shilmagan. Bu narsa ularning xalq hokimiyatchiligi – jan shakta va davlat hokimiyati – raj shakta ga bo'lgan qarashi bilan bog'liq edi. Ularning ko'pchiligi Maxatma Gandi bilan ham turli masalalarda chiqisha olmagan edilar. Masalan urushda ishtirok etish, saylov,Kongresni nosiyosiy tashkilotga aylantirish va boshqa masalalarda. Demak ularning Gandini o'z rahnamosi sifatida tan olishi ma'lum bir maqsadga – siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishga qaratilgan. Ular Gandiga faqat o'z maqsadlariga erishish uchun ergashganlar. Bugun esa ular siyosiy hokimiyatdan voz kechishni ham undan foydalanishdan voz kechishnin ham xohlamaydilar.ular ijtimoiiqtisodiy masalalarga qaratilgan harakatlarning omadi yoki omadsizligi hokimiyatning kimning qo'lida ekanligiga bog'liq.

Agar Hindistonning mustaqillik yillaridagi adabiyatini ko'zdan kechirsak hind reaksiyasi Maxatma Gandining avtoritetidan, Gandizmning mashurligidan foydalanishga intilganini ko'ramiz. Gandizmga qaytish tarafdorlari qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoatini rivojlantirishga chaqirganlar, ijtimoiy muammolarni inqiloblarsiz tinch yo'l bilan hal qilishga intilganlar.

Gandiga qaytish chaqirig'i asosan Maxatma Gandi va Javoharlal Neru qarashlarini qarama-qarshi qo'yishda ishlatilgan. Ularning o'zlari qayd

[84] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. М., 1986. С.178.

qilganlaridek, qarashlari keskin farq qilgan. Lekin har ikkalasi ham bir-birining qarashlarida tub ildiziy asosni ko'rgan. Bu esa ularni mustaqillik uchun kurashda safdoshlarga aylantirdi. Javoharlal Neru o'zining urushdan keyingi evolyutsiyasida Gandizmga yaqinlashdi. Buni o'rnida ko'ra bilgan Maxatma Gandi 1942 yilda Javoharlal Neruni o'zining siyosiy merosxo'ri deb atagandi. Agar Kongress adabiyotida Maxatma Gandi va Javoharlal Neru qarashlarining yaqinligi ta'kidlansa HMK raqiblari ularning farqlarini ko'rsatishga intilganlar. "Gandiga qaytish" Nerudan voz kechishni bildirardi. Bu ikkala qarash ham biryoqlama. Gandi va Neru qarashlarini qiyosiy o'rganish ularning o'zaro tasirda bo'lganligini ko'rsatadi. Javoharlal Neru bir umr Maxatma Gandi shaxsi va prinsiplari tasirida bo'lgan. Maxatma Gandi ham o'zining kichik do'stini ayrim qarashlarini ma'lum jihatlarini qabul qilgan va ular HMK g'oyasini boyitishini tan olgan[85].

Hozirgi kunda ma'lumki Maxatma Gandi tomonidan tuzilgan va amaliyotga joriy etilgan Gandizm g'oya va siyosiy ta'limot sifatida ingliz hukumatiga yon berishga majbur bo'lsada mustamlakachilikka qarshi kurashda unga dosh bera oldi. Maxatma Gandi esa asl maqsadi – mustamlakachilikka erishishdan qaytmadi. Yon berishlar ommaviy chiqishlarni vaqtinchalik to'xtatardi, lekin Maxatma Gandi boshchiligidagi ozodlik harakati aniq talablaaaarni olg'a surgan holda yangi bosqichga ko'tarilardi, Maxatma Gandi XX asr dunyoning siyosiy va diniy rahnamolari orasida alohida mavqega ega. Biz u yashagan davrdan qancha uzoqlashsak uning ommaviyligi, olg'a surgan g'oyalarining eskirmaganligini shuncha aniq ko'ramiz. Uning fojiali o'limidan keyingi qariyb yarim asrlik vaqt Maxatma Gandi ma'naviy me'rosini arxivlarda chang bosib yotmasdan, hindular hayotining ajralmas qismiga aylanganini dunyoning turli mamlakatlaridagi insonlar dunyoqarashiga ta'sir etayotganini ko'rsatadi. Maxatma Gandi va uning ta'limoti noyobligi va o'ziga xosligiga qaramasdan o'zida umuminsoniylikni mujassam etgan.

[85] Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М., 1960. С.75.

Xulosa

Hindistonning mustaqillikka erishishi yo’lida hind xalqining buyuk farzandi Moxandas Gandining xizmatlari alohida. U 1869-yil 2-oktabrda G’arbiy Hindistonning bir chetida joylashgan Purbandar knyazligida tug’ulgan. Knyazlikning asosiy aholisi gujorat tilida so’zlashadi. Gandi ajdodlari “baniya” savdogarlar kastasiga tegishli bo’lib,, ularning orasida milliy savdo va siyosiy burjuaziya vakillari ham bor edi. Moxandas Karamchand Gandining otasi Kaba Gandi edi. U dastlab Rajkotga, keyinroq Vankonerga bosh vazir bo’lib ishlagan. To o’limigacha u Rajkot hukumatidan nafaqa olib turgan. Onasi Putlibay Kaba Gandining to’rtinchi xotini bo’lib, undan to’rt farzandi bor edi. Tortinchi farzandi Moxandas Gandi. Bolaligi Purbandarda o'tgan Moxandas birinchi marta maktabga borib, ko'paytirish jadvalini zo'rg'a yod olganini, boshqa bolalar bilan o'qituvchisiga turli-tuman laqablar qo'yganini eslaydi. Yetti yoshidayoq unashtirilgan Gandi o'n uch yoshida Kasturbay Manajiga uylanadi. Ota-onasi o'zining iqtisodiy jihatlari va sharoitlarini hisobga olib Moxandasni va amakivachchasini ham qo'shib uch yigitni birdaniga uylantirgan.

Maktabni tugatgach ota-onasining xohishi va o’sha davr sharoiti taqozosi bilan Moxandas Gandi Bavnagardagi Samaldas kollejiga o’qishga kirdi. Lekin u kollejda bir semester o’qiydi. O’qishga bo’lgan ishtiyoqi uni London sari yetakladi. Uni Londonga borishi oson bo’lmagan. Chunki uning onasi va qarindoshlari dinidan chiqib, g’arb turmush-tarziga o’tib ketishidan xavotirda edilar. U o’z diniga sodiq qolishga tantanali qasamyod qilgandan keyingina ruxsat oladi. Katta akasi Ya. Gandining yordami bilan 1888-yilda “Inner Templ” da o’qishga kiradi. U yerda ingliz, fransuz va lotin tillarini, huquqni o’rganadi. 1889-1891-yillarda Londonda yashagan Moxandas avval Inner Templ advokatlik koorparatsiyasida huquqshunoslikni o'rgangan. 1890-yildan esa bu faoliyatini London universitetida davom ettirgan va barrister (ing. barrister - Buyuk Britaniyada advokatning oliy unvoni) diplomini oladi va 1891 yilda vataniga qaytadi.

1891-yilda Londondan oqlovchi diplomini olib qaytgan Moxandas Gandi 1891-1893-yillarda Bombeyda muvaffaqiyatli bo'lmasada advokatlik faoliyati bilan shug'ullangan. Uning faoliyatini yo'lga qo'yishga akasi qo'lidan kelganicha yordam qilgan. Akasining yordami bilan advokatlik faoliyatini davom ettirish uchun 1893-yil aprelda Janubiy Afrikaga yo'l oladi. May oyida Natalga yetib keladi. Bu yerga kelgan Gandi hindlarning huquqsiz va nochor ahvolini ko'radi. Bu ahvolni yaxshilashga uringan Maxandas Gandi uchun oqlovchilik amaliyoti endi ikkinchi darajali ishga aylanadi. Nataldagi keyingi faoliyatini butunlay jamiyatchilik ishiga qaratadi. Hindlarni saylash huquqidan mahrum etgan qonun loyihasi bilan bildirilgan norozilikning o'zi ozlik qilardi. Uning tashabbusi bilan 1894-yil Natalda Hindiston Milliy Kongressi (HMK) tashkil etiladi. U yerda Janubiy Afrikadagi hindlarning ozodligi uchun kurash olib boradi. 1915-yil yanvarda 46 yoshli Moxandas Gandi Hindistonga qaytib keladi. Hindistonga kelgan Moxandas HMK da o'z faoliyatini davom ettirdi.

Buyuk shoir nobel mukofotining sovrindori Robindranat Tagor (1861-1941) Moxandasni "faqirlik libosidagi Maxatma" degan edi. Shundan so'ng bu nom uning laqabiga aylandi, garchi o'zi bunga qarshilik va norozilik bildirsa ham Maxatma buyuk qalb ma'nosini anglatadi. Oddiy xalq uni keyinchalik xudoning elchisi, karomat ko'rsata oladigan Hindiston ehtiyojlarini o'ziga ola biladigan buyuk inson deb tasavvur qilmasin deb ham bu nomga qarshilik bildiradi. U o'zini avliyo va payg'ambarlarga sira o'xshamaydigan oddiy odam deb bilgan.

Moxandas Gandi buyuk bo'lib tug'ilmagan, balki o'z mehnati va intilishlari natijasida o'zini shu darajaga olib chiqqan. Bunda Gandi kabi har kim o'zida rivojlantira oladigan ikki xislat yaqinlariga va haqiqatga bo'lgan muhabbat katta ro'l o'ynagan. Moxandas Gandi o'z hayoti bilan eng oddiy odamda ham bo'lishi mumkin emasdek tuyuladigan mukammallikka erishtiradigan va mo'jizalar sodir etadigan qobiliyat borligini isbotlab berdi.

Gandining fikricha: "Inson o'ziga ishongandagina bo'lishi mumkin". Bunday ishonch va qaror tufayli oddiy bo'lib tug'ilgan Moxandas Gandi o'zini buyuklik darajasiga ko'tardi, millionlab kishilarning ruhiy rahnomasiga aylandi va

hozirgi vaqtda mo’jiza bo’lib tuyuladigan natijalarga haqiqat va muhabbat usuli bilan erishdi.

Moxandas Gandi yakka hukmron edi. O’z rejasiga qat’iy amal qilishni talab qilar, undan chiqib ketishga yo’l qo’ymas va boshqa fikrlarga, tashabbuslarga sira bo’yin egmagan. Millionlab xalqni oyoqqa turg’azgan va uni boshqara olgan shaxs edi.

Moxandas Gandining hind milliy ozodlik harakatidagi tarixiy roli beqiyos. Moxandas Gandi Hindiston mustaqilligi uchun ulkan xalq yig’di, kurashga otlantirdi va bu barcha tomonlama muhim ijobiy yutuqlarga erishdi. Hindistonda biron bir siyosiy, g’oyaviy ta’limot Gandizm kabi ommaviy, tashkiliy ta’sirga ega bo’lmagan. Moxandas Gandi hind miliy ozodlik harakatining rivojlanish bosqichining ommaviy tus olgan davrida unga rahbarlik qildi. O’sha davrdagi xalqning tarixiy vazifasi ikki yuz yillik mustamlaka tuzumini ag’darib, mustaqil bo’lish Moxandas Gandi rahbarligida amalga oshirildi. Shuning uchun uni vatandoshlari hind xalqining otasi deb atashdi.

Moxandas Gandi hind jamiyatining turli qatlamlari va sinflari ishtirok etgan umum milliy antiimperial harakatni boshqardi.

Moxandas Gandi mustamlakachilarga qarshi hind xalqining katta qismini oyoqqa turg’aza oldi. Ayni vaqtda mustamlakachilar bilan muzokaralar olib borish uchun sharoit yaratish maqsadida ularni inqilobiy harakatlardan saqlay ham olgan. Aynan shu usul uni hind milliy ozodlik harakatining eng yirik rahnomasiga aylantirdi.

Hindistonda milliy ozodlik harakatlarining asosiy dastagi Gandizm talimotidir. Gandizm ta’limotining asosini “satyagraxa” tamoyili tashkil etadi. “Satyagraxa” – “qatiylik haqiqatda” degan ma’noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda “satyagraxa chuqur falsafiy ma’noga ega bo’lib u Hindistonda milliy ozodlik harakatining o’ziga xos yo’nalishini vujudga keltirdi. Bu zo’rliksiz vat inch yo’l bilan kurashish dasturi edi. “Satyagraxa” tamoyilining asosiy maqsadi har qanday raqibni ittifoqchiga aylantirishdir. “Satyagraxa” tinch yo’l bilan

namoyishlar orqali harakat qilishni ilgari suradi. Gandi bu harakatlarning boshida turadi. Bu harakatlari tufayli Gandi bir necha bor hibsga olinadi.

Men Maxatma Gandining hayot yo'lini o'rganib chiqish davomida nazariy anglab yetgan tushunchalarimdan tashqari bir narsani ko'rdim. Garchi badiiy to'qimalarga boy bo'lsada hindlarning bir filmida Maxatma Gandi va uning "satyagaraxa" ta'limotiga hozirgi davrda hindlarning munosabatini ko'rdim va men o'rgangan "satyagraxa" ta'limoti naqadar samimiy va go'zal ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1999. 149-bet.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Muloqot. 1998. 2-son. 2-3-betlar.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: O'zbekiston, 1998 y. 16-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Tarix insituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori.// Xalq so'zi. 1998 yil. 28-iyul.
5. Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007
6. Винод Бхатия Джавохарлал Неру и становление индийского-советских отношений 1917-1947. Москва,1989
7. Ганди М.К. Моя жизнъ. Москва,1959
8. Горев А.В. Махатма Ганди. Москва,1984
9. Датта Д. Философия Махатма Ганди. Москва,1959
10. Джавохарлал Неру. Открытие Индии. II томах. Москва, 1989
11. Дридзо А.Д., В.И. Кочнев, И.М. Семашко Индийцы и Пакистанцы за рубежом. Москва,1978
12. Камаров Е.Н, Литман А.Д. Мировоззрение Махандаса Карамчанда Ганди. Москва,1969
13. Колъцов Н.Н. Индия:40 лет боръбы и свершений. Москва,1987
14. Мартышин О.В. Махатма Ганди в оценке советских исследователей. Азии и Африки сегодня. 1987 г. №8.
15.Мартышин О.В. Политические взгляды Джавохарлала Неру. Москва,1981
16. Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и гандизм. Москва,1986
17. Новая история Индии. Отв. ред. К.А.Антонова, Н.М.Голъдберг, А.М.Осилов. Москва,1961
18. Новейщая история Индии. Отв. ред. Балабушевич и А.М.Дъяков. Москва,1959

19. Сарвепалли Гопал. Джавохарлал Неру “Биография”. Том I 1889-1947. Москва,1954

20. Синха Н.К. Банерджи А.Ч. История Индии. Москва,1954

21. Улъяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. Москва,1960

22. Юрлова Е. Махатма Ганди – борец за социалъную справедливостъ. Азии и Африки сегодня. 1999 г. №12.

23. Юрлова Е. Индии: Мусулъмане и мусулъманки. Азии и Африки сегодня. 2007 г. №10.

24. http://www.krugosvet.

25. http://www.rubrikon.ru/bse_1.asp